

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«Himoyaga ruxsat etildi»
Filologiya fakultet dekani, p.f.n,
_____ K.Abdullayev
«__» _____ 2018-y.

5120100-Filologiya va tillarni o`qitish
(o`zbek tili) ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi
Jaloldinova Muxayyo Xasanboy qizinig

Usmon Nosir – mohir tarjimon

mavzusidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etildi»
O`zbek tili va adabiyoti kafedراسi
mudiri
_____ f.f.n. Sh.Abdurahmanov
«__» _____ 2018-y.

BMI rahbari:
Katta o`qit A. Omonov

Namangan – 2018

Mundarija

Kirish	4-8
I. BOB. 30-yillar adabiy jarayonida o'zbek tarjimachiligi	9
1.1. Realistik tarjima va tarjimaning ilmiy va nazariy asoslari	10-15
1.2. Badiiy tarjima orqali she'riyatda yuzaga kelgan shakily va badiiy rang-baranglik	15-21
1.3. 30-yillarda til masalasi xususida bo'lgan qizg'in bahs va munozaralar	21-24
II. BOB. She'riyatdagi shakliy izlanishlar	24-30
2.1. Usmon Nosirning tarjimachilik faoliyati	30-46
2.2. M. Yu. Lermontovning «Demon»i Usmon Nosir tarjimasida	47-56
IV. Umumiy xulosalar.	57-59
V. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	60-62

KIRISH

Fan, texnika va texnologiyaning o'tgan asrning o'rtalaridagi yutuqlari, shubhasiz zamonaviy ilmiy texnik taraqqiyot uchun zamin yaratdi.

XX asrda, ayniqsa, uning ikkinchi yarmida fan taraqqiyotining sur'ati, o'zining eng yuqori cho'qqisiga erishdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Statistik ma'lumotlar bu davrda to'plangan ilmiy ma'lumotlar, insoniyatning butun tarixi davomida to'plangan bilimlar hajmining $\frac{3}{4}$ qismidan ortig'ini tashkil qilganligini e'tirof etadi. Fan, texnika, texnologiyaning jadal sur'atdagi samarali taraqqiyoti ishlab chiqarish usullarining ham, aniq fanlarning ham, ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham o'zgarib, takomillashib borishiga, shuningdek, fanlarning o'rganilishiga ham, o'rgatilishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Tabiiyki, ishlab chiqarish usullarining o'zgarishi, ta'lim sohasidagi tegishli o'zgarishlarni taqozo etadi.

Tom ma'noda, XXI asr–aql-zakovat va bilimdonlik asri. Bu hol jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy taraqqiyotida tub o'zgartirishlar qilish lozimligini taqozo etmoqda. Respublikamizda ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq o'zgarishlar ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni milliy ruh bilan sug'orish, samarali an'anaviy usullarni saqlab qolgan holda yangilarini yaratish va amaliyotda qo'llash borasida olib borilayotgan ishlarga bog'liq. Bu yo'nalish keng qamrovli bo'lib, mazmunan takomillashib bormoqda. Ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'limning, jumladan, ona tili va adabiyot fani ta'limining butun jarayonini aniq reja asosida tashkil qilish hamda o'quv jarayonini jamiyatning ijtimoiy buyurtma sifatida ta'lim oldiga qo'ygan maqsadiga ko'ra individuallashtirishni nazarda tutadi.

Ta'lim tizimining fan, texnika va ishlab chiqarish sohalari bilan integratsiyalashuviga erishuvini ta'minlashni bugungi kunning dolzarb muammosi sifatida kun tartibiga qo'yilishi bu borada muayyan vazifalarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Respublikamizning birinchi Prezidenti «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirishda quyidagi fikrlarga alohida e'tibor berish lozimligini ta'kidlagan edi: «Yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazoratga olish zarur».[5] Malakali kadrlarni tarbiyalash uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib,

ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshishi yuqori samaradorlikka ega bo'lgan o'qitish texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llashni va keng ko'lamli axborotlardan foydalanishda tezkorlikka erishishni taqozo etadi.

Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilim asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil Respublikamizning rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishini ta'minlash yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi (1997 yil 29 avgust)da qabul qilingan hamda bugungi kunda g'oyalari amaliyotga keng ko'lamda muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni [4] va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» [5] mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyati to'laqonli ochib berilgandir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga jahon ta'limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutishi lozim. Chunonchi, mazkur jarayonning uchinchi bosqichi (2005 va undan keyingi yillar)da «... ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash, o'quv-tarbiya jarayonini yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlash»[5] kabi dolzarb vazifalar ijobiy hal etilmog'i zarur.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekistonda tarjimachilik barq urib gulladi. Hukumatimiz bu sohani davlat ahamiyatiga ega ish deb qarab kelmoqda. Chunki tarjima xalqning estetik didini, ma'naviy olamini yuksaltiruvchi muhim vositalardan bo'lib, milliy adabiyotlarning rivojini tezlashtiruvchi omillardan, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik va internatsionalizmni mustahkamlovchi

qudratli kuchlardan biridir. Zotan, o'zbek adabiyotining rivojlanishida, ayniqsa unda realistik nasr, birinchi navbatda roman janri, dramaturgiya janrlarining tug'ilishi va kamol topishida rus adabiyoti va boshqa xalqlar adabiyoti va chet el adabiyotidan qilingan tarjimalarning roli beqiyos katta bo'ldi. Tarjima jarayonida yozuvchilarning (tarjimalarning asosiy qismini yozuvchilar amalga oshirdi) mahorati o'sdi. Tarjima ular uchun katta maktab bo'ldi. Jahon badiiy xazinasidagi shoh asarlarning tarjima qilinishi yosh yozuvchilar uchun ham katta darsxona bo'lib xizmat qilmoqda.

Qisqa vaqt ichida jahon adabiyotining shu qadar ko'p asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindiki, mustaqillikdan avvalgi vaqtda tarjimachilikning bunday traqqiyotini faqat orzu qilish mumkin edi. Hozir yaratilayotgan va chet ellarda maydonga kelgan badiiy asarlarni yanada keng ko'lamda tarjima qilishga kirishildi. Mana shu jarayonda O'zbekistonda tajimachilik katta yutuqlarni qo'lga kiritdi, muhim tajribalarga ega bo'ldi, ko'plab professional tarjimonlar yetishib chiqdi. Ayni choqda tarjimachilik soha sida qator qiyinchiliklar yengib o'tildi. Mustaqillikdan avvalgi yillar dagi tarjima san'ati bilan hozirgi davrdagi tarjimonlar mahoratini qiyoslasak, tarjimachiligimizning naqadar rivojlanib ketganiga ishonchimiz komil bo'ladi, ayni chog'da talantli yozuvchilar tomonidan qilingan tarjimalar yangi avlod uchun bir namuna bo'lib qolishi mumkinligidan dalolat beradi. Suu tufayli o'zbek tarjimashunoslari oldida muhim vazifa turadi. Biri O'zbekistondagi tarjima tarixini yaratish, tarjimachilikning bosib o'tgan yo'llari, qiyinchiliklari va erishgan tajribalarini yoritishdir. Bunda «20-yillar o'zbek tarjimachiligi» (filologiya fanlari kandidati A.Jalolov va tadqiqotchi A. Umarov); «30-yillar o'zbek tarjimachiligi» (filologiya fanlari doktori J. Sharipov va ilmiy xodim A. Matyoqubov); «1917— 1941 yillarda o'zbekchadan rus tiliga qilingan tarjimalar» (filologiya fanlari kandidati M. Isroilova) kabi davrning tarjimachilik manzarasi to'g'risida umumiy tasavvur beruvchi maqolalarni va qator adabiy portretlarni sanab o'tish joiz. Bu maqolalarda muayyan tarjimonning ijodiy izlanishlari, tarjimachilik mahoratini egallash jarayoni va bu sohadagi o'ziga xosligini ochishga e'tibor berildi.

Bitiruv-malakaviy ish maqsad va vazifalari: Ma'lumki, har bir yangilikning hayotda qaror topishi, o'z o'rniga, o'z qiyofasiga ega bo'lishi osonlikcha ro'yobga chiqmaydi. Xuddi shu ma'noda ming yillardan beri shakllanib kelgan eng yaxshi an'analarni o'z ichiga qamrab olgan yangi tipdagi adabiyot osonlikcha shakllanmagan. XX asr 30-yillari tarjimachiligining muhim jihatlarini yoritishda bitiruv-malakaviy ishining maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- realistik tarjimaga asos solinishini ko'rsatish;
- tarjima asarlari xususida matbuot sahifalarida qizg'in bahs-munozaralar bo'lib turishi sabablarini tushintirish;
- adabiyotshunos, ham tarjimashunos olimlar yetishib chiqa boshlaganini izohlash;
- 30-yillar tarjimachiligining keng ko'lamda qanot yozishini yoritish;
- tarjimachilikda tarjima sifati uchun kurash qizg'in tus olganligini ko'rsatish;
- U.Nosirning tarjimachilik sohasidagi faoliyatini tadqiq etish.

Bitiruv-malakaviy ish obyekti: Usmon Nosirning tarjima asari M. Yu. Lermontovning «Demon»i va A. S. Pushkinning kamolot bo'sag'asida yozilgan asari «Bog'chasaroy fontani»ning tarjimalarini tadqiq etish .

«Demon» Lermontov poemalarining eng mukammali, shoir iste'dodini namoyon qilgan yirik asarlaridandir. Usmon Nosir bu ikkala shoirdan tarjima uchun asar tanlar ekan, tanlagan asarlari ma'lum bir jihatlari bilan bir-biriga yaqin turadi. Ikkala asarning syujeti ham sharqqa xos bo'lgan voqealar asosida yaratilgan. Ikkala asarda ham sharqona ruh ustun turadi. «Demon» tarjimasi va poemadagi isyonkor ruhni 30-yillar adabiy muhiti bilan bog'liq holda, tarjimonning kurashchanlik tabiatiga yaqinligi xususida fikrlar aytish. «Bog'chasaroy fontani»,«Demon» asarlarining o'sha yillardagi tarjimasi ishimizning manbai bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning metodologik asosi bo'lib dialektikaning umumiylik-xususiylilik, shakl-mazmun kategoriyalari xizmat qiladi. Asosan, lingvopoetik, uslubiy va qiesiy tahlil usullaridan keng foydalanish nazarda tutiladi.

Bitiruv-malakaviy ishining tuzilishi va hajmi: Ish kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat bo'lib 62 sahifani tashkil etadi.

1-BOB. 30-yillar adabiy jarayonida o'zbek tarjimachiligi

O'zbek tarjimachiligi o'tgan asrning 20-yillarda ma'lum bir o'ziga xos yo'nalishni ozmi ko'pmi shakllantirgan bo'lsa, 30-yillar adabiy jarayonida barqaror o'z o'rniga ega bo'ldi. Tajribali keksa tarjimonlar qatorida adabiyotimizga yosh tarjimonlar ham kirib keldi.

30-yillar... O'zbek adabiyoti uchun eng murakkab, ziddiyatli, ayni chog'da yaratish nafasi bilan yo'g'rilgan bir davr edi. Bu yillarga kelib adabiyotimiz nasrda ham, she'riyatda ham juda katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Umuman, o'zbek adabiyoti tarixida, realizm adabiyoti davri boshlangan edi.

Ma'lumki, har bir yangilikning hayotda qaror topishi, o'z o'rniga, o'z qiyofasiga ega bo'lishi osonlikcha ro'yobga chiqmaydi. Xuddi shu ma'noda ming yillardan beri shakllanib kelgan eng yaxshi an'analarni o'z ichiga qamrab olgan yangi tipdagi adabiyot osonlikcha shakllanmagan. Adabiyot haqida, shu jumladan tarjima adabiyoti xususida fikr yuritilar ekan, adabiy jarayonni hayot taqozosi, turmush shart-sharoitlari, qisqasi, davr atmosferasini hisobga olmasdan bu masalaga yondashish mumkin emas.

Tarjima adabiyoti Vatan adabiyotining bir qismi, ya'ni Vatan adabiyotiga aylangan ajralmas xazinadir. 30-yillar tarjimachiligiga nazar tashlar ekanmiz, tarjima asarlari o'sha davr adabiy jarayonini harakatga keltirgan asosiy kuchga aylanganligini ko'ramiz. Bu yillardagi tarjimachilik XIX-XX asrlardan ilgarigi tarjimachilikdan keskin farq qiladi. Ma'lumki, ilgari original asar, asosan, tarjimonning g'oyaviy niyatiga bo'ysundirilib, ijodiy bir shaklda o'girilardi. Bu hil tarjimalar klassik tarjimachilikning asosiy tamoyillaridan edi. Xuddi shu tamoyillarning ba'zi bir ko'rinishlari ma'lum bir darajada XX asr 20-yillar tarjimachiligida ham aks etgan. Mana shu asarlarning o'ziyiq o'zbek tarjimachiligi katta va murakkab bir yo'lni bosib o'tganligidan darak beradi. XX asrning 30-yillarga kelib adabiyotimizda bo'lganidek tarjimachilikda ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ilgarigidek «ijodiy» yondashishlar, «o'zidan qo'shishlar»ga chek qo'yildi. Asl nusxa qay tarzda yaratilgan va qaysi xalqqa mansub bo'lsa buning hammasini o'z holicha saqlash tamoyiliga amal qilina bordi.

1.1. Realistik tarjima va tarjimaning ilmiy va nazariy asoslari

XX asr 30-yillari tarjimachiligining yana bir muhim jihati shundaki, bu yillarda realistik tarjimaga asos solindi, tarjima ilmiy va nazariy asoslari yaratila boshlandi. Tarjimaning sifati uchun kurash asosiy masalaga aylandi. Tarjima asarlari xususida matbuot sahifalarida qizg'in bahs-munozaralar bo'lib turdi. Ham adabiyotshunos, ham tarjimashunos olimlar yetishib chiqa boshladi. Bu jihatdan Otajon Hoshim, Sotti Husayn, Mannon Royiq, Ziyo Said, Sanjar Siddiqlarini eslash joizdir¹.

30-yillar tarjimachiligining keng ko'lamda qanot yozishini hayotning o'zi taqozo qilardi

A. S. Pushkinning «Boris Godunov» tragediyasi, rus masalchisi I. A. Krilovning «Bo'ri bilan qo'zichoq» asari Cho'lpon tomonidan o'zbek tiliga muvaffaqiyatli o'girildi. Bu yillarda tarjimachiligimiz faqatgina rus adabiyoti va qardosh xalqlar adabiyoti bilan cheklanib qolmadi. Jahon adabiyotining eng yaxshi asarlari rus tili vositasida o'zbek tiliga tarjima qilina boshlandi. Bu o'rinda yana Cho'lpon tarjimasidagi B. Shekspirning «Gamlet» tragediyasini eslatib o'tish lozim. Bu asar tarjimasida bugungi adabiyotshunos va san'atshunoslarning ehtiروفicha, sahna asarlarining kamol topishida muhim rol o'ynagan. Iste'dodli olim G'. Salomov «Adabiy an'ana va badiiy tarjima»³ kitobida bu asar tarjimasini batafsil tahlil qilib bergan

30-yillar tarjimachiligi xususida gap ketganda shuni aytish mumkinki, tarjimachilikda tarjima sifati uchun kurash qizg'in tus oldi. Tarjimachilik sifati uchun kurashning bu xildagi qizg'in kurash jarayoniga aylanishining muhim bir sabablari bor edi, albatta.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, klassik tarjima an'anasining yangi tarjima davridagi tarjima tamoyillari bilan hamohang kelmaganida, to'g'rirog'i, tarjimonlarimizning tarjima tamoyillarini to'la egallay olmaganida edi. Tarjimaga ijodiy yondashishni har kim har xil tushungan. Bu har xillik tarjimashunoslikda qizg'in munozaralarga sabab bo'ldi. Ijodiy tarjima qilish tushunchasini o'z vaqtida

¹ Саломов Ф. Адабий анъана ва бадий таржима. Тошкент, 1980.

"anglay'olgan tarjimashunoslar bu chalkashlikka barham berish uchun kurashdilar. Bu jihatdan 1937 yilda A. S. Pushkinning «Evgeniy Onegin» she'riy romani tarjimasi xususida yozgan Otajon Hoshimning kirish so'zi xarakterlidir. Tarjimashunos Otajon Hoshim «Evgeniy Onegin» asarining tarjimasini tahlil qilar ekan, tarjimon Oybekning yutuq va kamchiliklarini haqqoniy ko'rsatadi. Munaqqidning tarjimonlar oldiga qo'ygan til, milliy kolorit, asl nusxa ruhi, xarakterlarni aks ettirish kabi qator masalalar bugungi kun uchun ham muhim bir dolzarb masalalardandir. Oybekning ijodkor sifatida ulug'ligi shundaki, Otajon Hoshim ko'rsatgan kamchiliklarni to'g'ri qabul qildi va bu asarni qayta ishladi. Bu she'riy romanning deyarli barcha satrlarida zahmatkash tarjimon qalamining nurli izlari bor. Xuddi shu faktning o'zi o'sha davrda ijod qilgan Sotti Husayn, Sanjar Siddiq kabi tarjimashunoslarning maqolalari ham tarjima sifatining yaxshilanishida muhim rol o'ynaganidan dalolat beradi.

Sanjar Siddiq o'zbek tarjimachiligi o'zining rivojlanish, shakllanish jarayonining barakali davrini o'tayotgan ana shunday bir paytda o'zining butun kuch g'ayrati, bilimi va iste'dodini ishga soldi. Uning «Adabiy tarjima asoslari» (1932), «Sahnada til» (1935), «Odam tushunmaydigan so'zlar va oson tilda yozish to'g'risida» (1935) kabi maqolalarida ko'tarilgan fikrlar keyinchalik «Adabiy tarjima san'ati» (1936) kitobida umumlashtirilib, tarjima nazariyasi bo'yicha jiddiy bir tadqiqotning vujudga kelishiga yordam berdi.

O'zbekistonda tarjima nazariyasiga oid to'ng'ich qo'llanma hisoblangan bu asar hozir ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Biz Sanjar Siddiqni o'zbek xalqini jahon va rus adabiyoti namunalari bilan tanishtirishda katta xizmat qilgan tarjimon deb bilish bilan birga, tarjima nazariyasi bo'yicha o'z davrida birinchi jiddiy ilmiy ish yaratgan tarjimashunos olim deb ham taniymiz.

«Adabiy tarjima asoslari»ning asosiy qismi «Tilning sofligi va tarjimachi», «Tarjimaning sohalari va tarjimachilik shartlari», «Uslub masalalari», «Yanglishlar» deb nomlangan boblardan iborat. Qitobning xarakterli jihati shundaki, u odatdagidek, «Xulosa» bilan tugab qo'ya qolmagan. Asarning xulosa qismidan keyin «Qo'shimcha» sarlavhali alohida bo'limi ham berilganki, uning o'zi

ham «Matbuotimizning tilini tozalaylik», «Tarjimadagi chatohlar va jo'g'rofiya terminlari», «Bir tarjima haqida» nomli qismlardan iborat. Ularda gazeta va jurnallarda yuz berayotgan g'alizliklar, «odam tushunmaydigan jumlar», mavhum tarjimalar, jumladan, 30-yillar boshida chiqarilgan «Geografiya atamalari» nomli kitoblarni tarjima qilish borasida yo'l qo'yilgan jiddiy nuqsonlar to'g'risida mufassal so'z yuritilgan.

S. Siddiq she'riy asarlar tarjimasi to'g'risida ham alohida to'xtalgan. U yozadi: «She'r tarjima qilishda ma'no va mazmuni to'la berish bilan birga she'rning shakliy sifatini ham o'tkazish nazarda tutiladi. She'rning misralari, ohangi, vazni, qofiyalarining qaysi xilda kelishi, shoirning uslub, ya'ni badiiy xususiyati tarjimada aks etishi lozim... She'r tarjimachiligi ayrim masala talab qiladi, she'rni tarjima qilish uchun shoir bo'lish — shart bo'lmaganda ham — zarur.

She'riy bo'lmagan asarlarni, chunonchi, maqola va kitoblarni tarjima qilish vazifasini o'z tilida maqola yozib o'rganmagan kishiga topshirish bir darajada mumkin, lekin o'z tilida she'r mashq qilmagan kishiga she'r tarjimasini berib bo'lmaydi...» (47—48betlar).

Tarjimada ro'y beradigan yanglishlarni Sanjar Siddiq uchga bo'ladi.

Birinchi xil xatolar — bilimsizlikdan, tilni yaxshi bilmaslik hamda so'zlarning o'rniga qarab turli ma'noda kelishini anglab yetmaslik natijasidir.

Ikkinchi xil xatolar—tildagi sinonimlardan, tilning lug'at boyligidan xabarsizlik, ya'ni har bir til ning o'ziga xos iboralarining ichki mazmunidan begonalik natijasida va nihoyat:

Uchinchi xil xatolar—jumla va tarkiblarni o'girishdagi loqaydlikdan kelib chiqadi.

Tarjimonning hamisha yodida turishi shart bo'lgan, burchi hisoblangan yana bir masala, bu tarjima qilinayotgan asarda muallif uslubini saqlash masalasidir. Bu to'g'rida Sanjar Siddiq o'z kitobidan alohida bir bo'lim ajratib bu bobni «Uslub masalalari» deb nomladi.

Uslub — ma'nolarni ko'rsatishning yo'li va fikrlarni ifoda qilishning usulidir —deb yozadi muallif. Uslub asarning sifati, xarakteri, yuzi demak dir. Shuni qathiy

eslatib, o'tish lozimki, uslubni tarjimada saqlash — har tilning o'ziga xos qoida va o'ziga xos alohida xususiyatlarini ham ko'chirish

degan gap emas. Shuningdek tarjimonning tarjimalarga o'z tilining xususiyatlarini «yopishtirish»i, tarjima qilinayotgan asardagi tasvir va ta'riflarni milliy lashtirishi ham uslubni ko'chirish degani emas, mutlaqo. Biroq «...mutarjimlarning vazifasi, tarjima qilayotgan asarlarning mavzuini yaxshi bilishlari bilan birga o'sha asar qaysi tilda yozilgan bo'lsa o'sha, tilning milliy xususiyatlarini ham o'zlashtirishdir».

Sanjar Siddiqning estetik qarashlaridan, tarjima nazariyasi bobida qoldirgan fikrlaridan kelib chiqib, uning tarjimonlar oldiga qo'ygan talab va vazifalarini tartib bilan quyidagicha ifodalash mumkin:

Tarjimon ,avvalambor, tajriba va malaka hosil qilgan bo'lishi, har bir tilning o'ziga xos alohida qoida, xususiyatlariga ega ekanligi, shuningdek, tarjimachilikning ham aniq qoida va qonunlari borligini bilishi lozim.

Tarjimon o'zi tarjima qilayotgan asar muallifi uslubini saqlashi shart. Asardagi obraz va personajlarning nutq uslubi bilan yozuvchining o'z badiiy uslubini farqlay bilishi va o'zi «hazm» eta olmagan mavzularni tarjima qilishga urinmasligi kerak.

Tarjimon o'zi tarjima qilayotgan asar muallifining ijodiy yordamchisi bo'lib, u aytilmoqchi bo'lgan g'oyaviy maqsadni to'la va puxta ishlash orqali o'z tilida yaratishi, o'zini muallif bilan bir qatorda asar uchun mashul sanashi, tarjima — asarning boshqa tildagi to'liq nusxasi ekanligini unutmashligi zarur.

Tarjimon so'zga boy bo'lishi, har qaysi so'zni o'z o'rnida to'g'ri va tushunib ishlata bilishi, so'z va ma'no farqiga jiddiy e'tibor bermog'i, so'zlardan ko'ra ko'proq jumlar bilan ish tutmog'i kerak. Gapda so'z tartibi, ya'ni so'zlarning terilishi tartibi va so'z tartibiing har tilda o'ziga xoslik kasb etishini yaxshi bilishi lozim.

Ko'rinib turibdiki, Sanjar Siddiqning «Adabiy tarjima asoslari» kitobi o'sha davrda «tarjimonlar uchun muhim ish dasturi» bo'lgani holda, hozirgi kunda ham tarjimonlar uchun muhim qo'llanmadir.

30-yillar tarjimachiligining muhim fazilatlaridan biri uni talantlar bilan boyib umumjahon adabiy jarayon bilan hamohangligida ko'rinadi. Bu fazilat, ayniqsa,

o'sha yillari adabiyotimizga kirib kelgan, keyinchalik o'zbek adabiyotining asoschilariga aylangan yosh qalam sohiblarining ijodlarida yorqin o'z aksini topdi.

Ma'lumki, har bir yosh ijodkor adabiyot dargohiga qadam tashlashi va bu muqaddas dargohda muqim qolishida qanchadan qancha ijodiy izlanishlarni, mashaqqatli mehnatlarni boshidan kechiradi. 30-yillarda G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Oybek, Uyg'un, Mirtemir, Abdulla Qahhor kabi qator ardoqli nomlarning adabiyotimizda paydo bo'lishi va bugungi ehzozlangan mavqeiga yetishi ana shu davrdagi tarjimachilik jarayoni bilan ham bog'langandir. G'afur G'ulomning 30 yillardagi tarjimonlik faoliyatiga nazar tashlansa, turk xalqining buyuk farzandi Nozim Hikmat, tatar shoiri Xodi Toqtash asarlaridan o'zbekchalashtirishi, ular ijodini o'rganishi, V. V. Mayakovskiyning qator minbar she'rlarini tarjima qilishi, Bertolg'd Brextning asarlariga murojaat qilishi o'sha davr adabiy jarayonining muhim bir belgisidek ko'zga tashlanadi.

Xuddi shu davrlarda Mayakovskiycha she'riy shaklda she'r yozish hayotning dolzarb nafasini ifodalash uchun ancha qulaylik tug'dirdi. Endigina adabiyotimizga kirib kelgan yosh shoirlarning ko'pchiligi rus she'riyatidagi sillabik shaklga murojaat qildilar. Bu xildagi she'riy shaklga murojaat qilish Mayakovskiyning ta'siri edi, albatta. 30-yillarning ilk davridagi she'riy tarjimalarni kuzatsangiz, bunda mutarjimlarning asl nusxaga harfma harf yondashishiga moyilliklari borligini ko'rasiz. G'afur G'ulom va Shukur Sa'dullaning V. V. Mayakovskiy asarlaridan qilgan tarjimalari xuddi shu tarzda o'zbekchalashtirilgan. Ayniqsa Shukur Sa'dullaning shoir asarlaridan qilgan tarjimalarida bu hol yaqqol ko'zga tashlanadi. Tarjimashunos M. Rasuliy bu ikkala tarjimonning qilgan tarjimalarini tahlil qilar ekan, ularning yutuq va kamchiliklarini to'g'ri ko'rsatadi. Tadqiqotchi Mayakovskiy ijodiga qo'l urilishi ilk tajribalardan ekanligini qayd qilib, asosiy kamchilikni shaklga e'tiborning kuchayishida ko'radi. U yozadi: «O'zbek she'riyatsidagi yangilik shu bo'ldiki, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon va boshqa shoirlar ritmni yangilash maqsadida Mayakovskiyga ergashib o'z she'rlarida satrni bo'ladigan bo'lib qoldilar. Biroq Mayakovskiyga bu jihatdan ergashishda natija aytarlik durust chiqavermadi. O'zbek shoirlarining she'rlarida satrlarning bo'linishi

she'r ma'nosiga hamisha muvofiq kelavermadi. Xuddi ana shu yo'sinda shakl tomonga berilib ketish G'afur G'ulom tomonidan qilingan «Hayqiriq»ning tarjimasida namoyon bo'ldi; bunda tarjimonning she'riy shakli odatdagidan birmuncha boshqacha. Biz bu yerda kichik satrchalarni satr bo'yicha ketma ket tizib borish o'rniga ularning qalashtirib tashlanganligini, o'zbekcha she'r tuzishda satrdagi bo'g'inlar sonining teng bo'lishiga rioya qilinmaganligini, qofiyalanishning uyg'unsizligini ko'ramizki, bu tarjimada zo'r berib yangi she'riy shakl izlaganligidan darak beradi»². Tarjimashunos M. Rasuliyning bu fikrlari asosan to'g'ri bo'lsa ham, agar o'sha davr nuqtai nazaridan qarasaq, bunday holning bo'lishi tabiiydek tuyuladi.

30-yillarning boshida Mayakovskiy asarlarini o'zbek kitobxonining o'qishi, yangi mazmun va yangi shakldagi she'riyat bilan tanishishining o'ziyoq ijobiy hodisa edi. G'afur G'ulomning ham, Shukur Sa'dullaning ham tarjimachilikdagi ilk tajribalarining qimmatini benihoya bo'ldi. Keyinchalik ular tarjima sirlarini puxta o'rganib yetuk tarjima asarlarini yaratdilar.

1.2. Badiiy tarjima orqali she'riyatda yuzaga kelgan shakily va badiiy rang-baranglik

Bu davr o'zbek tarjimachiligida ilk bosqich edi. Bu yillardagi tarjimalarning qimmatini ijodkorlarimizning ilk, dadil tashlagan qadamlarining zarbi bilan belgilanadi. Bu zarb adabiyotimizda tarjima orqali ayniqsa she'riyatda shakliy rangbaranglikni, mavzuyi jihatdan kenglikni vujudga keltirdi. Shoir va yozuvchilarimiz bunday ulug' san'atkorlar asarlarini tarjima qilish bilan, avvalo ijodkor sifatida o'zligini, ijod mas'uliyatini angladilar. Shu jihatdan ham she'riyatimizda, adabiyotimizda sifat o'zgarishi ro'y bera boshladi. Tarjima sifati yildan yilga yaxshilana bordi. Bu davr adabiyoti intensiv ravishda tarjima asarlari bilan boyib borsa, hayotning ko'tarinki pafosini ifodalaydigan adib va shoirlarimizning o'zlari yaratgan asarlari bilan boyidi.

² М. Р а с у л и й. Маяковский асарлари ўзбек тилида. Тошкент ГНТС, 84бет.

Tarjima jarayonining eng qizg'in davri 30-yillarning ikkinchi yarmi hisoblanadi. Bu davrga kelib shoir va adiblarimizning e'tiborini rus klassiklari torta bordi. Ular ijodiga qiziqish kuchaydi. Shu jihatdan A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov, A. N. Nekrasov, L. N. Tolstoy asarlariga 30 yillarda ko'proq murojaat qilinishi bejiz emas.

Bu o'rinda yana shuni qayd qilish kerakki, adabiyotning og'ir karvoniga nasrdan ko'ra nazm yetakchilik qilardi. Kundalik hayotni tez surhatlar bilan aks ettirish, inson kayfiyati, ruhiga ta'sir etishda she'riyat qo'l keladi. Ana shu davr taqozosi tufayli 30-yillar adabiyotimizda she'riyat oldingi safda edi, ko'plab she'riy asarlar ham tarjima qilinardi. Bu degani nasrga e'tibor kam bo'lgan degani emas, albatta. Nasrda ham ijodkorlarimiz juda katta yutuqlarni qo'lga kiritish bilan g'oyat ko'p nasriy asarlarni tarjima qildilar.

Endilikda A. S. Pushkin ijodining adabiyotimizda tutgan o'rni va ahamiyati nihoyatda katta. Iste'dodli shoir va mohir tarjimon Abdulla Oripov Pushkin ijodining o'zbek adabiyoti taraqqiyotida qanday rolg' o'ynaganini quyidagicha izohlaydi: «Bugungi kunda adabiyotning estetik madaniyati yuksak. Shunga ko'ra, ijodkorning o'tmish adabiyoti tajribalariga munosabati ham yigirma va o'ttizinchi yillardagi munosabatlardan farq qiladi. Bugun, masalan, o'zbek she'riyati Pushkindan faqat poetik mahoratnigina o'rganib qolmay, balki uning ijodidagi chuqur, g'oyaviy estetik tamoyillardan ham ilhomlandi. Chunonchi, mening adabiyotdagi tengqurlarim va jumladan, mening o'zim ulug' shoirning voqelik bilan faol, hamnafas yashab, davrning muhim, dolzarb masalalarini dadil ko'tarishidan, adabiyotni vijdon ovozig'a aylantirishidan, otashin grajdanlik jasoratidan, shubhasiz, chuqur ta'sirlanganmiz». Abdulla Oripovning Pushkin ijodiga nisbatan aytgan bu fikrlari nihoyatda to'g'ri topib aytilgandir.

Atoqli shoirimiz Hamid Olimjon «A. S. Pushkindan she'r tarjima qilgan qalamkashni ijod qilmadi deb bo'lmaydi», deganida ming chandon haq edi. Bu fikrlardan ko'rinadiki, 30-yillarda tarjima ishi umumxalq ishiga aylangan. Adabiyotimizning bu jabhadagi qalamkashlar badiiy asarlar tarji masiga umumxalq ishi nuqtai nazardan qaragan va shunga amal qilganlar.

1934 yil 7—11 martda Toshkentda O'zbekiston yozuvchilarining birinchi

respublika shezdi bo'lib o'tdi. Shu shezdada o'zbek yozuvchilarining kelajakdagi vazifalari belgilab berildi.

1930 yilda A. S. Pushkinning «Dubrovskiy» povesti Ismoil Obid tarjimasida bosilib chiqdi. 1931 yil dan boshlab M. Gorg'kiyning asarlari birin-ketin tarjima etilib nashr qilina boshladi: «9 yanvar», «Chaqmoqli ish» («Дело с застёжками»—tarjimoni noma'lum), «Men yozishni qanday o'rgandim» (G'. Abdulla tarjimasida), «Lochin qushi qo'shig'i» (Nasrullo tarjimasida) asarlari ana shular jumlasidandir.

1931 yildan boshlab tarjimachilik ishiga yangi kuchlar kelib qo'shildi.

H. Olimjon M. Lermontovning «Bela», Izzat Sultonov Lukashinning «Kichik hikoyalar»ini, Malik Rahmon Chexovning «Unter Prishibeev» asarlarini tarjima qildilar. Mannon Royiq badiiy tarjima ustida juda unumli ish olib bordi. U M. Gorg'kiyning «Bolalik» (1931), Lyashkovning «Yemirilish» (1931), Sholoxovning «Ochilgan qo'riq» (1932) asarlarini tarjima qilgan.

Abdulla Qahhor Serafimovichning «Temir oqim», M. Gorg'kiyning «Mening universitetlarim» asarlarini tarjima qilishi tarjimonlikdagi katta jasorat edi. Mirzakalon Ismoiliy xuddi shu yillarda L. N. Tolstoyning «Tirilish», Novikov Priboyning «Pulima», M. Gorg'kiyning «Konovalov» asarlarini ehtiros bilan tarjima qildi.

30—40 yillar oralig'ida tarjimachiligimiz yangi yangi yosh iste'dodlar bilan boyib bordi. Tarjimonlar safi kengaydi. Tarjima asarlarining sifati yildan yilga yaxshilandi. Ko'pgina tarjimashunos olimlar tarjimachilik masalalari bilan jiddiy shug'ullanib tarjimonlarga katta yordam berdilar. Kurashchanlik ruhi bilan yaratilgan bu xil ilmiy maqolalar «she'riy asarlarni tarjima qilib bo'lmaydi», deb dahvo kiluvchilarga qattiq zarba bo'ldi. Tarjimachilikdagi ba'zi bir nuqsonlar qoralandi. Otajon Hoshimning tarjimashunoslikka bag'ishlangan katta yig'inda so'zlagan nutqida o'sha davr tarjimashunosligi haqida fikr yuritilgan bo'lib, uning quyidagi so'zlari xarakterlidir: «Ba'zi odamlar Pushkin asarlarini o'zbekcha to'la-to'kis va ravon qilib tarjima etish mumkin emas», desalar bu bilan faqat o'zlarining til bilmasliklarini va madaniyatsizliklarini oshkor qiladilar. O'zbek xalqi

adabiyotining namunalari, badiiy meroslarimiz, bu kungi usta yozuvchilarimiz asarlari yaqqol ko'rsatadiki, Pushkin kabi adiblarning asarlari bor xususiyatlari bilan o'z tilimizga ko'chirila oladi. Oybek va Usmon Nosir kabi o'rtoqlarning tarjimalari bunga dalildir».

1935 yillarga kelib rus klassiklari asarlarini o'zbekchalashtirish qizg'in tus oldi. Rus shoiri Nekrasovning tanlangan asarlari, Krilovning qator masallari chop etildi. Ayniqsa, bu davrlarda shoir Elbekning tarjimonlik faoliyati diqqatga sazovordir. Nekrasovning «Saylanma asarlar»i, A. S. Pushkinning «Oltin xo'roz haqida ertak», «Baliqchi va baliq ertagi» asarlari o'zbek tilida Elbek qalami tufayli bunyod bo'ldi. Bu tarjimalarning Pushkin tomliklarida qayta-qayta nashr qilinishi uning yaxshi tarjima ekanligidan darak berib turibdi.

Biz o'zbek tarjimachiligida Pushkin asarlarini tarjima qilish jarayonining o'zi katta maktab vazifasini bajardi, desak mubolag'a bo'lmaydi. 30-yillarga kelib Oybek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Usmon Nosir, Uyg'un, Shayxzoda, Mirtemir, Mirzakalon Ismoilov va shunga o'xshash qator adiblarimiz ijod sohasida katta tajribaga ega bo'lgan bo'lsalar, tarjimachilikda ham shunday mahorat ko'rsatayotgan edilar. A. S. Pushkinning bo'lajak yubileyi munosabati bilan 1936 yilda tegishli tadbirlar belgilandi. Shu tadbirlar qatorida shoir asarlarini tarjima qilish ishlariga katta ahamiyat berildi. Pushkin asarlarini tarjima qilgan mualliflar ro'yxatini keltiradigan bo'lsak, nihoyatda cho'zilib ketadi. Uning she'riy asarlarini tarjima qilishda 20 dan ortiq shoir, tarjimonlar qatnashdi. Nasriy asarlar xususida ham xuddi shunday deyish mumkin. Pushkin asarlarining keng ko'lamda o'zbek tiliga tarjima qilinishi faqat tarjimachilikka emas, o'zbek adabiyotining yuksalishiga ham juda katta hissa bo'lib qo'shildi. Atoqli adibimiz Oybekning bu genial shoir ijodining gultoji bo'lgan, rus adabiyotida realizmni boshlab bergan qomusiy asari «Evgeniy Onegin»ni tarjima qilishi, butun rus adabiy jamoatchiligining diqqatini tortgan, shov-shuvlarga sabab bo'lgan shoirning ilk poemalaridan biri «Kavkaz asiri»ni Hamid Olimjonning o'zbekchalashtirishi, Pushkinning mahoratini namoyon qilgan «Boqchasaroy fontani» tarjimasini olovqalb Usmon Nosir qalamiga mansubligi 30-yillar tarjimachiligining eng go'zal, eng

yuksak namunalaridan biri edi.

Pushkin asarlari tarjimasi tajribasidan ma'lumki, nomlari zikr qilingan atoqli tarjimonlardek hozirga qadar xuddi shu saviyada shoir asarlarini bironta tarjimon qoyilmaqom qilib tarjima qila olganicha yo'q. Bizning nazarimizda, bu tarjimonlarning mahorat sirlari Pushkin talanti tabiatiga ularning iste'dodi tabiati yaqinligidadir. Bundan tashqari Oybek, Hamid Olimjon, Usmon Nosir, Mirtemir xalq og'zaki ijodi bilan shakllangan klassik an'analarni o'zlashtirib olgan katta isteg'dod egalalari edi. Pushkin ijodining o'q tomirlari xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Xalq og'zaki ijodidagi soddalik zamiridagi donolik Pushkin ijodiga xos xususiyatlardan biri edi. Xuddi shu xususiyatni Oybek, Hamid Olimjon, Mirtemir, Usmon Nosir kabi atoqli so'z ustalari ijodida ham ko'rish mumkin. Bu tarjimonlarniig fazilati shundaki, ular avval tilga e'tibor berib, tilimizning boy imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga intildilar. Usmon Nosirning so'z ustida ishlashi borasida atoqli adibimiz Hamid G'ulom shunday eslaydi: «Usmon men bilan issiq ko'rishdi.— Xadra so'zining ma'nosini bilmaysizmi?— so'radi.

— Afsus, bilmayman,— xijolatdan manglayimga sovuq ter chiqdi,— Nimaga kerak bo'lib qolgan edi?

— Chodra so'ziga qofiya qidirib yuribman, —Manglayi tirishib javob berdi Usmon,—«Demon»da shunday ibora bor: «Tamaraning chodراسi». Xadra so'zining ma'nosi mos kelsa zab qofiyaga tushar edida. Biroq uch to'rt kishidan so'radim, hech kim bilmayapti.

— Yuring, G'ofur akadan so'raymiz,— dedim men Usmonga.—G'ofur aka bilmaydigan narsa yo'q.

— To'g'ri aytasiz, G'ofur aka qomusila'lam.— Usmon fikrimni tasdiqladi».

Usmon Nosirning shoirlik iste'dodi keng kitobxonlarga ma'lum. Bunday qaraganda katta talant egasi bo'lmish shoirning so'z izlab yurishi qiziq tuyuladi. Aslida shaxsiy ijod fikr izlanishi bilan paydo bo'lsa, tarjima asarlari mos so'zlar izlash bilan vujudga keladi. Chunki tarjima qilinadigan asarda tayyor fikr, tayyor g'oya, tayyor konsepsiya mavjud. Tarjimon unga shakl va chiroyli ifodalaydigan

mantiqi teran so'z tanlashi kerak. Bu so'z tanlashning o'zi ham ijodkorning lug'at boyligi, o'tkir didi, nozik ta'bligiga bog'liq ijodiy bir jarayondir. Shuning uchun ham tarjimashunoslar tarjimondan shoirlik iste'dodi, olimlik qobiliyatini, qisqasi, ensiklopedik bilimni talab qiladilar. Bu haqli talab, albatta.

A. S. Pushkin asarlari tarjimasi xususida gap ketganda shuni ta'kidlash lozimki, Abdulla Qahhorning «Kapitan qizi» asari tarjimasi ham o'sha davrda yaratilgan eng yaxshi tarjimalardan biridir. Adabiyotimizga tanqidchilik iste'dodi bilan kirib kelayotgan yosh munaqqidning tarjimaga qo'l urishi ham o'sha davrda quvonarli bir hol edi. Izzat Sultonovning «Bekat nazoratchisi» hikoyasini tarjima qilish munaqqidning haqiqiy tarjima asarini yaratganligi bilan e'tiborni o'ziga qaratdi. Izzat Sultonov bu asarni o'sha davr saviyasidan ancha yuksak tarjima qildi: «Кто не проклинал стационарных зрителей, кто с ними не бранивался? Кто в минуту гнева не требовал от них руковой книги, дабы вписать в оную свою бесполезную жалобу на претеснение грубост и неисправност? Кто не почитает их извергами человеческого рода, равнявши покойнѣш по дхячим или, по крайней мере, муромским разбойникам? Будем одноко, справедливи, постараемся войти в их положение и можетѣ битѣ, станем судитѣ о них гораздо снисходительнее»и³.

«Kim bekat nazoratchilari boshiga lahnatlar yog'dirmagan, kim ular bilan o'lgudek so'kishmagan? Kim g'azab minutlarida o'zining jabr, qo'pollik va tartibsizlik haqidagi foydasiz shikoyatini yozish uchun mashhum daftarni talab etmagan? Kim ularni kishilar urug'ining eng vahshiysi deb hisoblamagan, marhum podhyatchilar bilan yoki, eng kamida Murom qaroqchilari bilan teng qilmagan? Ammo odam bo'laylik, ularning haqiqiy ah volini tushunishga harakat qilaylik va ehtimol, ular haqida ancha rioya bilan fikr yurgiza boshlarmiz»⁴.

Bu asar ilk marta e'lon qilingan yilidagidek hech o'zgarishsiz 1949 yilda qayta nashr qilindi. Pushkinning 1955 yilda chop etilgan 4 tomiga kiritildi. 1955 yilgi nashrda asar ancha-muncha qayta ko'rib chiqilgan. Asar tarjimasi 30-yillar

³ Х а м и д Фулом. Йиллар. Йўллар. Устозлар. Тошкент, 1979, 68бет.

⁴ Пушкин А. С. Полное собрание сочинений. Т. 4. 1954, с. 72.

tarjimachilik tamoyillari va madaniy saviyasiga to'g'ri keladi. Ma'lumki, o'sha davr she'riyati va nasriy asarlarda kezi kelganda ruscha so'zlardan foydalanish, eski arab va fors tillardan kirib kelgan so'zlarni rad etish hollari ro'y bergan. Bizning nazarimizda, tarjimon Izzat Sulton hayotdagi shu xil noto'g'ri qarashlardan cho'chigan bo'lsa kerak, asar tarjimasida ko'pgina tarjima qilinishi mumkin bo'lgan rus so'zlarini to'g'ridan to'g'ri qo'l laydi. Shu keltirilgan parchada « подячим » so'zi bor. « Подячий » so'zining « дяк » sinonimi mavjud. Lug'at larda bu so'zning tarjimasini «mirza», «munshi», deb e'lon qilingan. Agar tarjimon «munshi», «mirza» so'zlarini qo'llaganda asarning ruhini to'laroq anglatgan, Pushkin yashagan davr hayotini kitobxonga eslatib turgan bo'larmidi.

1.3. 30-yillarda til masalasi xususida bo'lgan qizg'in bahs va munozaralar

30-yillarda til masalasi xususida qizg'in bahs va munozaralar bo'ldi. Ko'pchilik adib va olimlar fors va arab tillardan kirib kelgan so'zlarni ishlatishga qarshi chiqdilar. Bir xil tarjimonlar tarjima qilinishi mumkin bo'lgan ba'zi ruscha so'zlarni aynan olishga urindilar. Bu jihatdan Otajon Hoshimning «Evgeniy Onegin» tarjimasiga yozgan qirq to'rt sahifadan iborat so'z boshisi xususida to'xtalib o'tsak, o'sha davr tarjimachiligi va tarjimashunosligi haqidagi fikr mulohazalarimiz yanada oydinlashadi. Avvalo, shuni aytish kerakki, o'zbek tarjimashunosligining ilk qaldirg'ochlaridan biri bo'lmish Otajon Hoshimning Oybekning mazkur tarjimasiga bag'ishlangan maqolasi ilmiy asoslanganligi, tarjimashunoslikning dolzarb masalalarini o'rtaga tashlaganligi va bu masalalarni chuqur analitik usulda yechishga harakat qilganligi bilan ham diqqatga loyiqdir. Otajon Hoshimov maqolasining ibratli tomoni shundaki, u masalaga umumfilologik nuqtai nazardan yondashgan, tadqiqotchi sifatida «Evgeniy Onegin» poemasiining tub mohiyatini anglagan. Asardan olingan misollar tahliliga nazar tashlasak, obraz va detallar, tashbeh va epitetlar yuksak did bilan tahlil qilinganini ko'ramiz. Otajon Hoshim mazkur ishda tarjimonning bilishi va qilishi kerak bo'lgan muhim talablarni qo'yadi. Bu talablar bugungi kunda ham o'z mohiyati bilan tarjimashunoslikda dolzarb masala hisoblanadi.

Otajon Hoshim fikricha, har qanday genial asar tarixiydir. Shuning uchun ham shu davrga xos bo'lgan narsalar tarjimada saqlanmog'i lozim. Aks holda, asar mohiyati to'g'ri talqin qilinmaydi.

Bu she'riy roman tarjimasining tahlili davomida yana tilga tegishli arxaik so'zlar, fors, arabcha so'zlarning ba'zi satrlarda o'rinsiz qo'llanganini ham tarjimashunos nazardan soqit qilmaydi.

Oybek asarning so'nggi nashrida munaqqid bildirgan fikrlar asosida o'rinsiz qo'llangan arxaik va iste'moldan chiqib ketgan fors-tojik so'zlarning ba'zilarini qoldiradi, ba'zilarini qayta ishlaydi.

Otajon Hoshimning obrazlar xususida bildirgan fikrlari ham diqqatga sazovordir. U shunday yozadi: «Badiiy til deganda oldimizga umuman adabiy asarning (agar u haqiqiy adabiy asar bo'lsa) asosiy xususiyatidan iborat bo'lgan keng ma'noda obraz masalasi gavdalanadi. Ma'lum, adabiyot, adabiy asarning asosiy ob'ekti—odam, belgili tipik hayot sharoitida yashovchi tipik odamni ko'rsatishdir, hamda u odam orqali hayotni, voqelikni tasvirlashdir. Badiiy asarda ko'rsatadigan hayot va tabiat ko'rinishlari, belgili jamiyat odamlarini tasvir hilish uchun zaruriy umumiy bir fondir. Demak, badiiy asarda odamni ko'rsatish — odam orqali uni o'ragan, yetishtirgan tipik ijtimoiy ham tabiiy hayotni ko'rsatishdan iboratdir... Shunday bo'lar ekan tarjimada ham ma'lum badiiy asarning obrazlarini, tiplarini asliday qilib berishning ahamiyati o'z-o'zidan ma'lum bo'lib qoladi»⁵.

Otajon Hoshim asardagi obrazlarning xususiyatlari haqida gapirar ekan, avvalo, qahramonlarning kelib chiqishini ijtimoiy hayot bilan, ular voyaga yetgan muhit bilan bog'lab talqin etadi. Tarjimondan ham haqli ravishda voqelikning originalga xos berilishini talab qiladi. Obrazlarning konkretligini tahminlovchi badiiy vositalarning real hayotga yaqin; mantiqan izchil bo'lishligini uqtirib, buni konkret misollar bilan

Otajon Hoshim «Evgeniy Onegin» tarjimasini tahlil etib tarjimonlarga xalal beradigan, uni chalg'itadigan ikki nuqsonni ko'radi. U yozadi: «Tarjimonning

⁵ Хошимов О. «Эвгений Онегин» таржимаси тўғрисида.— А. С. Пушкин. Евгений Онегин. Ойбек таржимаси. Тошкент, Уздав иашр, 1937, 22бет.

harfma harf bo'lishi yoxud tarjimada badiiy asarning asl mazmunini, berilgan obrazlarni, fikrlarni, hislarni buzib turib, o'zidan o'ylab chiqarib tarjima qilish — bizga hech to'g'ri kelmaydigan printsiptir. Bu ikki tamoyil ham tarjima qilinayotgan asarni buzishga olib boradi. Chunki bu ikkala tamoyil ham asarni yangilish tushunishdan kelib chiqadi».

Bu fikr o'z vaqtida nihoyatda to'g'ri topib aytilgandir. Bugungi tarjimachiligimizda ko'p uchraydigan nuqsonlardan biri xuddi shu masalaga e'tibor bermaganlikdan ko'rinadi. Chunki ba'zi tarjimonlarimiz asarning mohiyatini chuqur anglash, uni tushunish uchun harakat qilmasdan o'zlaricha yondasha beradilar. Natijada asar rangsiz, badiiy jihatdan sayoz bo'lib kitobxon nazaridan chetda qolib ketadi. Ulkan adiblarning asarlarini ba'zan kitobxon ta'nasiga duchor bo'lishida avvalo tarjimon, qolaversa, tarjimashunosligimiz aybdordir.

A. S. Pushkin asarlarining 30-yillardagi tarjimasi xususida gap ketganda, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayot tarzini unutish mumkin emas. Hayot uchun kurashning bunday qizg'in damlarida Pushkindek daho shoir ijodiga qo'l urildi. Bu ulug' shoir asar lari tarjimasidagi yutuq va kamchiliklarni biz ta'kidlab o'tgan shart-sharoitning taqozosi deb qarash kerak bo'ladi. Bundan tashqari, barmoq shaklidagi she'riy sismavzu hali hayotda tamoman o'z hukmronligiga ega emas edi. Asrlardan beri davom etib kelayotgan she'riyatimizning aruz shaklida tarbiyalangan didi, ruhi, shoirlik tabiati shu shaklga moslashgan ijodkorlar uchun davr talabiga mos bo'lgan barmoq vaznida ijod qilish oson bo'lmadi. Yuqorida ko'rib chiqqan «Evgeniy Onegin» tarjimasi shu biz ta'kidlayotgan murakkablikka dalildir. Oybek ko'p jihatlardan munaqqid ehtirozlarini qabul qilsa ham u o'z pozitsiyasida mustahkam turdi. Tarjimon tilga jiddiy e'tibor bilan qaradi. Chunonchi «qadar» so'zini keyingi nashrida qo'llashi juda o'rinli bo'lgan. Bu xil so'zlar she'riyatimizda hozirgi kunda ham faol so'zlardir. Qo'pchilik san'atkorlarimiz o'z fikrlarini mazmundor ifodalash uchun lug'atimizning ko'zga tashlanavermaydigan, iste'moldan chiqib ketgan shu xildagi so'zlarni tanlab o'rinli qo'llaydilar. Bu xususiyatni, ayniqsa, keyingi shoirlar ijodida, chunonchi, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Omon Matjon va shunga o'xshash qator iste'dodlarning ijodlarida ko'rish mumkin. Adabiyotimizdagi

bu xil tilga e'tibor bilan qarash ustod adiblarimizning boshlab bergan an'analarining davomi sifatida ko'zga tashlanadi. Til — hamma davr uchun ham asosiy masala. Tilning boyligi, sofligi uchun kurashish adabiyotning sifati uchun kurashishdir.

2.BOB. She'riyatdagi shakliy izlanishlar

She'riyatdagi shakliy izlanishlar 30-yillar oxiriga kelib o'zining muhim o'rnini topdi. Bunda ham shoir Pushkindan o'zbek shoirlari va yozuvchilari minnatdor bo'lsalar arziydi. Rus she'riyatida o'ziga xos xususiyat shundaki, kitobxon rus she'rlarini o'qiganda o'z do'stlari bilan oddiy suhbatlashgandek bir yo'sinda o'qiydi. Bu xil sodda, lekin teran mazmuni ifodalay oladigan rus she'riyati sirlarini, umuman she'riyat sirlarini, badiiy asar qonuniyatlarini teran bilmagan ba'zi qalamkashlar tarjima qilish jarayonida o'zini ham, kitobxonni ham aldaydi.

Biz Pushkin asarlari tarjimasining kamchiliklari haqida gapirar ekanmiz, avvalo, bu davr bilan bog'liq hodisadir. Yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, ba'zi tarjimonlarimizning tajribasizligi, bilim saviyasining, nazariy tayyorgarligining pastligi sabab bo'lsa, ba'zilarining esa Pushkinning talant yo'nalishiga, estetik tamoyillariga ularning talant yo'nalishi va estetik tamoyillarining to'g'ri kelmaganligidadir.

A. S. Pushkin asarlarining qay ko'lamda o'zbekchalashtirish ishlari olib borilganligi haqidagi Hamid G'ulomning mana bu fikri xarakterlidir: «...Oradan ko'p o'tmay Hamid Olimjon bu ulkan ijodiy ishimizni boshqarishni o'z qo'liga oldi. Bu bemisl ijodiy ishga O'zbekistonning eng yetuk shoir va adiblarini jalb etdi. Ular orasida Oybek, Temur Fattoh, G'afur G'ulom, Usmon Nosir, Amin Umariy, Zulfiya, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Hasan Po'lat kabi adiblar bor edi... Hamid Olimjonning o'zi «Kavkaz asiri»ni tarjima qildi. Menga, o'n yetti yoshlik boshlovchi shoirga she'rlar va «Tosh mehmon» she'riy dramasi tarjimasini topshirdi»⁶.

Hamid G'ulomning bu fikri o'sha yillarda faqat Pushkin ijodinigina emas, balki barcha progressyv shoir va yozuvchilar asarlarining ham o'zbekchalashtirish ishiga

⁶ X. Гулом. Йиллар. Йўллар. Устозлар. Тошкент. 1979, 35 бет.

jiddiy kirishilganligidan darak beradi.

Hamid Olimjonning o'zi Pushkinning «Kavkaz asiri» poemasi bilan birgalikda «Suv parisi» dramasini, qator lirik she'rlarini o'zbekchalashtirdi. Shoirning rus adabiyotshunosligida yuksak san'at asari sifatida bahblanadigan « Я вас любил...» kabi lirik she'rlarini o'zbek tiliga mahorat bilan ag'dardi.

A. S. Pushkin:

Язмка и ум теряя разом,
Гляжу на вас единнм глазом;
единий глаз в голове моей
Когда б судьби того хотели,
Когда б имел я сто очей,
То все би сто на вас глядели⁷.

Hamid Olimjon tarjimasida:

Tikilaman ko'rganda darhol
Idrokimni yo'qotib va lol:
Yagona ko'z mening boshimda,
Oy yuzingiz yonar qoshimda,
Agar taqdir ko'rmasa malol,
Ega bo'lsa edim yuz ko'zga,
Bori bilan qarardim Sizga⁸.

Hamid Olimjonning bu tarjimasini 30-yillar lirik she'r tarjimasining eng yuksak namunasi desak arziydi. Chunki originalda nimaiki mavjud bo'lsa u o'zbekchada ham o'z badiiy ifodasini topgan. Pushkinning bu she'ri « циклоп » deb nomlangan. циклоп — qadimgi grek afsonalarida bir ko'zli qahramonning nomi. She'r shu nomning mazmuniga qurilgan. O'zbekchada ham « циклоп » deya olinib, keyin izoh berilganda juda yaxshi bo'lardi. Bu she'r tarjimasini so'zma-so'z tahlil qilishga zarurat yo'q. She'r tarjimasini 30-yil lardagi ijodiy tarjima timsolidir. Hamid Olimjon she'r ustida nihoyatda qattiq mehnat qilgan. So'zlarni chertib, chertib ishlatgan.

7

8

Пушкин А. С. Полное собрание сочинение в десяти томах, Том.третий. Л., 1977, с. 154.
Олимжон Х. Беш томлик асарлар мажмуаси. Биринчи», том. Тошкент, 1970, 219бет.

U bilan hamfikir bo'lgan, birga ishlashgan FA muxbir a'zosi Yusuf Sultonov shunday eslaydi: «Hamid Olimjon har bir sohada nihoyatda ziyarak, ishlab tolmas bir qudratga ega ajoyib inson edi. Hatto u o'z asarlaridan tashqari qalamkash do'stlarining she'rlarini qayta sayqal berishga undardi. Agar ular erinchoqlik qilsa o'zi ishlab, o'z ko'nglidagidek sayqal topgach keyin e'lon qilishga berardi. Men o'zining yaqin do'stlari G'afur G'ulom, Uyg'un kabi o'rtoqlar bilan shunday munosabatda bo'lganini bilaman». V. G. Belinskiy M. Yu. Lermontov asarlaridan «Mtsiri»ni tahlil qila turib unda ba'zi bir mavhumliklarni, fikr ifodasidagi nuqsonlarni ko'rib shunday yozgan edi: «Pushkin bu jihatdan eng buyuk namuna: uning deyarli barcha tomlarini kuzatsangiz biron g'aliz, mavhum jumla tugul, hatto, so'z ham uchratmaysiz»⁹. Hamid Olimjonning poetik merosini o'qigan, kuzatgan har bir kitobxon Pushkinga xos bo'lgan ana shunday san'atkorlikni ko'radi. Bunday san'atkorlik shoirning tarjimalarida ham o'z aksini topgan. Fikrimizning dalili uchun «Kavkaz asiri» poemasidan bir misol keltiramiz:

А. С. Пушкин:

Литса врагов не видит он
Угроз и криков он не слышит¹⁰.

Hamid Olimjon tarjimasida:

Dushmanlarning tusini ko'rmas
Hiddatlarin eshitmas aslo¹¹.

Hamid Olimjon poema tarjimasida, avvalo shaklni to'g'ri tanlay olgan, tasvirdagi shiddat, misralardagi taranglik A. S. Pushkin uslubiga ancha yaqin turadi. Keltirilgan misoldagi satrlarni o'zbekchasi bilan qiyoslasak, mutarjimning so'zlarni nihoyatda tanlab asar mantiqidan kelib chiqib tarjima qilganligini ko'ramiz. Bu misolning ruschasida «лицо» so'zi bor. Buni odatda «yuz», «bet», «aft», «chehra» kabi qator so'zlar bilan ifodalash mumkin. Biroq tarjimon bu so'zlarning birontasini ham qo'llamaydi. Hech kimning xayolida bo'lmagan, lekin jonli tilda ko'p ishlatiladigan «tusi» so'zidan foydalanadi. Bu so'z nihoyatda o'rinli va to'g'ri

⁹ Белинский В. Г. Избранные статьи. М., 1974, с. 93.

¹⁰ Пушкин А. С. Полное собрание сочинений в десяти томах. Том IV. Л., 1977, с. 83.

¹¹ Пушкин А. С. Танланган асарлар. 2том. Тошкент, 1954, 102бет.

qo'llanilgan. Ma'lumki, sinonim so'zlar ma'lum bir ma'noni anglatrsa ham ularda tafovutlar bo'ladi. Ijodkor shu tafovutlarning farqiga borib so'zlarni to'g'ri tanlay bilishi kerak. Agar mutarjim dushmanlarning «yuzini ko'rmas», «chehrasini ko'rmas» yoki «betini ko'rmas» qabilida ag'darganda edi, asar mantiqiga xilof ish qilgan bo'lur edi. Chunki «yuz», «chehra» so'zlarida ijobiy ma'no mavjud bo'lsa, «bet», «aft» so'zlarida salbiy ma'no bor. Biroq «bet, aft» so'zlaridagi salbiy ottenka ham «tus» so'zi tashigan poetik mazmunga o'zlik qilardi. «Tus» so'zi bir jihatdan salbiy ma'no anglatrsa, konmatnda esa o'z ma'nosidan ancha kengayib, shoir ifodalayotgan his-tuyg'ularni yorqin aks ettirgan. Hamid Olimjon tarjimalaridan bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Bizning shu keltirgan misollarimiz ham 30 yillar tarjimachiligining mezoni, Hamid Olimjonning nozikta'b san'atkor ekanligini ko'rsatadi.

Bizga ayonki, xalqimiz mahalliy boylar, xon va beklarning zulmi ostida fan va texnika, madaniy taraqqiyotda Rossiya va Yevropa xalqlaridan ancha orqada qolgan edi. Teatr san'ati bizda ancha keyin shakllana boshlagani ma'lum. Chinakam realistik nasr XX asrga qadar deyarli yo'q edi. O'zimizda yo'q bo'lgan bu xildagi san'at turlarini bunyod etish o'sha davr ijodkorlarining zimmasidagi mashul vazifa bo'lib turardi. Shuning uchun ham dramaturglarimiz, yozuvchilarimiz g'arb progressiv adabiyotiga murojaat qildilar. Sahna asarlariga talabning kuchliligi sababli ilk bor G'arbning buyuk namoyondalarining dramatik asarlari teatrlarimiz sahnasidan o'rin ola boshladi. 30-yillar boshlaridayoq Gotstsining «Malikai Turondod» va Molg'erning «Bahl» dramalari o'zbek tilida sahnaga qo'yildi. Buyuk ingliz dramaturgi V. Shekspirning Cho'lpon tarjima qilgan «Gamlet»i va G'afur G'ulom tarjima qilgan «Otello» tragediyalari o'zbek tomoshabinlari orasida zo'r muvaffaqiyat qozondi. Bu p'esalar hozirgi kungacha o'zbek teatrlari sahnasida o'ynab kelinmoqda. Shekspirning «Gamlet» p'esasi o'zbek tilida uch marta bosilib chiqdi.

E. Raspening «Myunxgauzenning sarguzashtlari» asarlari va Mark Tvenning «Geklg'beri Finni sarguzashtlari» (Buyuk tarjimasini) hamda «Tom Soyerning sarguzashtlari» (A. Pirnazarov tarjimasini) 1935 yilda o'zbek tilida birinchi marta

paydo bo'ldi. Keyinchalik bu asarlar takror nashr etildi.

Shota Rustavelining «Yo'lbars terisini yopingan pahlavon» poemasining 750 yilligi munosabati bilan uni o'zbek tiliga tarjima etish bo'yicha ancha ishlar qilindi. Bu ishda O'zbekistonning peshqadam shoirlari ishtirok qildilar¹².

Yozuvchi M. Fayziy 1938 yilda Viktor Gyugoning «Xo'rlanganlar» romanidan «Gavrosh» qismini tarjima etdi. Shu yili yozuvchi Parda Tursun frantsuz yozuvchisi Mopassanning bir necha novellalarini tarjima qilgan edi. Shundan so'ng frantsuz klassik adabiyoti namoyandalari ijodiga qiziqish yanada kuchaydi. Gi de Mopassan novellalari o'zbek kitobxonlariga yozuvchi—tarjimon Zumrad tarjimalarida taqdim etildi.

1930 yildan boshlab yozuvchi Mahruf Hakim tarjima ishlari bilan qizg'in shug'ullandi. U SHillerning «Makr va muhabbat» (1939), Anri Barbyusning «O't» (1941) kabi asarlarini rus tilidan o'zbekchaga tarjima qildi. Iste'dodli tarjimon M. Osim 1940 yilda Romen Rollanning «Jan Kristof» asarini o'zbek tilida nashr ettirdi.

O'zbekiston o'quv-pedagogika nashriyoti 1938 yilda qadimgi yunon va rim klassik adabiyoti xrestomatiyasi kitobini bosib chiqardi. Xrestomatiyadagi Sofokl, Esxil, Evripid va Gomer asarlaridan namunalar birinchi marta Oybek va Mirtemir tomonidan tarjima qilingan edi. Ular 1941 yilda Genrix Geyne she'rlarining tarjimasi bilan ham shug'ullangan edilar.

O'zbek tarjimachiligi shu o'n yillikda tarix ko'rmagan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Tarjimonlarimiz yuqorida zikr qilingan jahon progressiv adabiyotidan namunalar tarjima qilish bilan birgalikda yaqin qardosh xalqlar adabiyotidan, chunonchi, ular Abdulla To'qay, Xodi Toqtosh kabi shoirlarning she'rlari bilan birgalikda ularning nasriy asarlarini ham tarjima qila boshladilar. 1935 yilda Hasan Po'lat tatar yozuvchisi Kovi Najim hikoyalarini tarjima etdi. 1938 yildan boshlab, o'zbek adabiyotida qozoq xalqining ulug' shoiri Jambul she'rlari tarjimasi 'aydo bo'la boshladi.

1937 yilda bir guruh o'zbek shoirlari Ukraina adabiyoti asoschisi Taras Shevchenkoning she'rlar to'plamini o'zbek tiliga tarjima qilib nashr etdilar.

¹² Саломов Ф. Тил ва таржима. Тошкент, 1966, 69бет.

30—40yillar tarjimachiligiga nazar tashlansa, M. Yu. Lermontov vafotining 100 yilligi munosabati bilan boshlangan tarjimachilik an'analari keng quloq yozdi. M. Yu. Lermontovga bag'ishlangan bunday katta marosim adabiy jamoatchiligimizda tamoman yangi edi. Rus shoiri M. Yu. Lermontov vafotiga 100 yil to'lishi munosabati bilan o'tkaziladigan marosimga tayyorgarlikda shoir asarlarining tarjimalari ijodiy musobaqaga aylandi. Shoir va tarjimon Hamid G'ulom M. Yu. Lermontov asarlarining tarjimasi borasida bo'lib o'tadigan bahslarni shunday eslaydi: «II Jahon urushi arafasida butun mamlakat M. Yu. Lermontov vafotining 100 yilligini nishonlash taraddudida edi—u kunlar xotiramdan o'chmasligi aniq. O'zbekistonda rus shoirining asarlarini tarjima qilish, nashr ettirish ishlarini xuddi bir necha yil oldin A. S. Pushkin ijodi bilan bo'lganidek, yana Hamid Olimjon boshqardi. Bu ulkan ishga ham respublikamizning zabardast qalam ahli jalb etildi.

Men shu asnoda Hamid Olimjon uyushtirgan tarjima kechalari haqida to'xtamoqchiman. Bu kechalarni o'ziga xos mushoira desa bo'lardi. Hamid Olimjon bu kechalarda raislik qilar, shoirlardan o'z tarjimalarini o'qib berishni so'rar edi. Lermontovning bir she'rini bir necha shoir o'z tarjimasida o'qigan hollar ham uchrardi. Tarjimalarning eng yaxshilari nashrga tavsiya etilardi. Afsuski, endilikda bunday ijodiy musobaqalar, mushoiralar o'tkazilmaydi. Agar biz ana shu an'anani — unutilmas do'stimiz tashabbusi bilan yaralgan an'anani tiklaganimizda bormi, u adabiyotimizda badiiy tarjima saviyasining yana ham yuksakka ko'targan bo'lardi, deb o'ylayman»¹³.

Adabiy jamoatchilikda Pushkin asarlaridan Lermontov asarlarining tarjimasi yaxshiroq degan fikr yuradi. Hamid G'ulomning Lermontov tarjimalari xususida aytgan gaplari bu shoirlar ijodi haqidagi jamoatchilik fikrlarini ancha oydinlashtiradi. Lermontov asarlari tarjimasining Pushkin asarlari tarjimasiga nisbatan durust chiqqanligining ma'lum sabablaridan biri tarjimonlarimizning Pushkin asarlarini o'zbek tiliga tarjima etib katta bir tarjima maktabini o'tgani ham edi. Qisqasi, o'sha davrda shoir va yozuvchilarimiz ham o'zlarining ijodida, ham tarjimada katta tajriba orttirgan edi. Agar biz G'afur G'ulomning Lermontovdan

¹³ Хамид Фулом. Йиллар. Иўллар. Устозлар. Тошкент, 1979, 37бст.

«Borodino» (1941) she'ring tarjimasini Mayakovskiyning «Hayqiriq» poemasi tarjimasi bilan muqoyasa qiladigan " bo'lsak, tarjimoning juda katta tajriba orttirib san'at sirlarini puxta egallaganini ko'ramiz. «Hayqiriq» tarjimasida G'afur G'ulomning she'riyat sirlarini uncha egallamaganligi ko'zga tashlangan bo'lsa, «Borodino» she'ri tarjimasida u yetuk san'atkor sifatida ko'zga tashlanadi. Hamid Olimjonning ham Lermontovning nasriy asari «Bela»ning tarjimasini 1939 yilda qayta ko'zdan kechirib nashr qilishi bejiz emas.

2.1. Usmon Nosirning tarjimonlik faoliyati

30—40yillar tarjimachiligi xususida gap ketganda Usmon Nosirning tarjimachilik faoliyati to'g'risida fikr yuritmay bo'lmaydi. Bu iste'dodli tarjimonning A. S. Pushkindan «Boqchasaroy fontani», M. Yu. Lermontovdan «Demon» tarjimalari tarjimachiligimizning yuksak namunasi sifatida hozirgi kunda ham ko'pchilik yosh tarjimonlarga ibratdir.

Usmon Nosirning ijodi azim bir kenglikka chiqish arafasida to'xtab qoldi. Uning ijodida yoshlikning betakror qaynoq tuyg'ulari, hayotga muhabbat, ehtirosli kurash hissi barq urib turadi. Undagi bu tuyg'u, bu qaynoqlik, ehtirosli kurash hissi uni Pushkin va Lermontov ijodiga yaqinlashtirdi. Tarjimon ularda o'z ijodiga hamohanglik sezdi. Shu hamohanglik natijasi o'laroq Pushkin, Lermontov asarlari Usmon Nosir qalamida xuddi o'zbek tilida yozilgandek jarangladi.

М. Ю. Лермонтов:

Остав Гирея мне: он мой;
На мне горят его лабзона.¹⁴

Usmon Nosir:

Na haqqing bor, na hadding sening,
Qo'y Garoyni menga; u mening
Bo'salari yonar betimda
Issig'i bor hali etimda¹⁵.

¹⁴

М. Ю. Лермонтов. Полное собрание сочинений в десяти томах, том четвертый. Л., 1977, с. 141

M. Yu. Lermontovning «Boqchasaroy fontani»dan keltirilgan misralarda Usmon Nosirning o'ziga xos tarjimonlik tamoyili namoyon bo'lgan. Birinchidan, tarjimon barmoqdagi to'qqiz bo'g'inli vaznni tanlab to'g'ri ish qilgan. Ikkinchidan, u konmatn hajmiga emas mantig'iga e'tibor beradi. Biz keltirgan misolda tarjimon ko'pso'zlilik qilgandek tuyuladi. Lekin Xonning eng nufuzli, suyuqli xotini bo'lgan Zaremaning rashk bilan yonib muhabbat nimaligini bilmagan yosh qiz—Mariyaga aytayotgan alamli gaplarida Usmon Nosirning «Na haqqing bor, na hadding sening» misrasi ortiqcha emas. Bu alamzada xotinlarga xos telba holatdagi ruhiy kechinmaning bir ko'rinishidir. Shu bilan tarjimon Zaremaning o'ziga xos ichki kechinmasini o'zbek kitobxoniga chuqurroq anglatishga imkon yaratadi. Misolimizdagi keyingi ikki misrasini bir misra qilib «Bo'salari yonar tanimda» yoki «Vujudimda yonar bo'sasi» tarzida olganda ham bunga hech qanday ehtiroz bildirish mumkin bo'lmasdi. Biroq o'zbekchada asarning umum ruhida tumtoqlik vujudga kelardi. Zarema Mariyaga xonga o'zining ardoqli xotin bo'lganligini eslatmoqda. «Issig'i bor hali etimda» misrasi Mariya kelib xonning unga qaramay qo'rganligiga, hamon shu harorat bilan kuyib rashk o'tida yonayotganiga shu haroratli bo'salar sabab ekanligiga ishora. Usmon Nosirning bu xildagi tarjima tamoyili uning, avvalo, badiiy qonuniyatlarni chuqur bilganligidan kelib chiqadi. Tarjimonning nazariy tayyorgarligi qancha puxta bo'lsa u yaratgan tarjima asarlar shu darajada go'zal, o'qimishli bo'ladi.

30—40yillar adabiy jarayonini, shu jumladan tarjimachiligini kuzatganimizda bu qisqa davr ichida chaqmoqday yaraq etib chiqqan talantlar haqida o'ylaganda ulug' Amerika yozuvchisi Ernst Xemingueyning quyidagi fikrini ularga nisbat berish mumkin: «Haqiqiy san'atkor, ulug' so'z ustasi mazkur sohada undan oldin nimaiki kashf qilingan bo'lsa, nimagaki erishilgan bo'lsa, hammasini o'zlashtiradi va o'ziga keragini nokeragidan shunday tezlik bilan ajratib saralab oladiki, go'yo u tug'ilishidayoq barcha bilimlar bilan qurollanib, dono bo'lib tug'ilgandek ko'rinadi, chunki oddiy odam umr bo'yi urinib egallaydigan bilim — zakovatga haqiqiy iste'dod goho ko'z ochib yumguncha tez muyassar bo'ladi; so'ngra ulug' san'atkor

avval erishilgan va kashf etilgan marralardan oldinga ketadi, o'zinikini, yangisini yaratadi. Lekin yana boshqa ulug' san'atkor paydo bo'lguncha goho juda ko'p vaqt o'tadi, avvalgi ulug' iste'dodni bilganlar yangisini tezda tan olmaydilar... Ular yangi iste'dodni tez tan olmasliklari, uzrli, chunki bitta haqiqiy, iste'dod paydo bo'lguncha shuncha ko'p qalbakilar kelib ketadiki, odamlar aldanishdan bezib, hammasidan kamchilik qidiradigan bo'lib qoladilar»¹⁶.

Agar biz bugungi yuksakliklardan turib 30-yillar adabiy jarayonidagi realizm metodi asosida yangi adabiyot yaratish uchun ketgan qizg'in kurashni kuzatadigan bo'lsak, davrning o'zi kashf etgan buyuk iste'dodlar yorqin namoyon bo'ladi. 30-yillar tarjimachiligida ham Yevropa adabiyotini, rus adabiyotini bu kun uchun ham ibratli bo'larli tarzda tarjima etgan san'atkorlar xuddi Ernst Xeminguey ta'kidlaganidek, o'zlarining benazir iste'dodi bilan adabiyotimiz tarixida munosib o'rin egallaydilar.

Usmon Nosirdagi bunday noyob talant ayniqsa Lermontovning «Demon» poemasi tarjimasida ko'zga tashlanadi. Bu asar tarjimasida ham tarjimon «Boqchasaroy fontani»dagi tamoyilida ish ko'radi. Usmon Nosir tarjima etish uchun tanlagan bu asarlar sharq xalqlariga xos milliy kolorit asosida yaralgan. Pushkin, Qrim xoni Garoy saroyi va uning xristian qizga muhabbatini tasvirlasa, Lermontov jannatdan haydalgan, xudoga shak keltiruvchi Demon bilan Tamara o'rtasidagi munosabatni, Demonning muhabbat tufayli yovuzlik ruhidan voz kechib hayotga qaytganini tasvirleydi. Bu ikkala asarda ham muhabbat ulug'lanib, yovuzliklar, xunrezliklar qoralanadi. Bu xildagi umuminsoniy tuyg'ularning asosiy ildizlari bir- biriga tutash bo'lsa ham, har bir san'atkorning ijod uslubi, kontseptsiyasi o'zgachadir. Ularni o'ziga xos tushunish, boshqacha aytganda, tarjimon Pushkin timsolida, Lermontov qiyofasida o'zbekcha so'zlar yaratish qobiliyatiga ega bo'lmog'i kerak. Usmon Nosirning bilim zakovati, iste'dodi shundaki, u o'zbek tilida ham Pushkin, ham Lermontov bo'lib buyuk iste'dodlarning shuhratiga shuhrat qo'shib so'zlay olgan.

Ba'zi tarjimashunoslar poetik asarlar tarjimasida tahlilida hajmga ko'proq e'tibor

¹⁶

Хемингуэй Э. Избранные произведения. В 2х томах. Т ИИ. М., 1959, с. 186.

berib, «Falon bob shuncha misra edi, uni shuncha misra bilan tarjima qilgan» qabilida sanoqqa berilib ketadilar va tarjimonga hajmning oshib ketganligi nuqtai nazaridan ehtiroz ham bildiradilar. Agar bu jihatdan yondashadigan bo'lsak, Hamid Olimjon, Usmon Nosirlarning tarjimalari maqsadga muvofiq kelmay qolishi hech gap emas. Tahlilda asar mohiyatidan kelib chiqadigan mantiq yuzasidan masalaga yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi. Usmon Nosirning «Bog'chasaroy fontani» asari tarjimasida originalda yo'q satrlar juda ko'p. Biroq hech kim uni ortiqcha deb inkor qila olmaydi, inkor qilishi mumkin ham emas. U bunga asar qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda erishadi. Zaremaning Garoydan nolib aytgan «Меня убьет его измена...»satrini tarjimon «Xiyonat meni o'ldirar, xazon etar, guldek so'ldirar...» tarzida o'giradi. Bizning nazarimizda, «Xazon etar, guldek so'ldirar» misrasini hech kim ham ortiqcha, cho'zilib ketgan, xarakter mantiqiga xilof deya olmasa kerak. Shunga o'xshash misollarni Hamid Olimjon, Oybeklarning tarjimalaridan ham keltirish mumkin.

30—40yillar tarjimachiligi xususida gapirar ekanmiz, adabiyotimizda ro'y bergan ishlab chiqarish mavzusiga berilib ketib, adabiyotning asosiy tamoyilini—hayotga estetik munosabatdan chekinish tendentsiyalarini ham qayd qilib o'tmay bo'lmaydi. Bu davrlarda zamon talabiga mos mavzu — ishlab chiqarish mavzusi bahona ko'plab iste'dodsiz asarlar yozildi. Hatto bu xil asarlar tarjima orqali boshqa qardosh xalqlar adabiyotidan ham kirib keldi. Chinakam san'at asarlari tarjimasini o'rini bu xil sayoz, hayotni yuzaki tasvirlovchi asarlarning olishi tarjimachiligimizga salbiy ta'sir etmay iloji yo'q. Bugungi kunda bu asarlar unutilib ketdi. Bular haqida gapirishga hojat ham yo'q. Hayotning beshafqat shamollari davrning ba'zi bir o'tkinchi talablarini xazonga aylantiradi, yo'q qiladi. Haqiqiy iste'dodlar adabiyotni umuminsoniyatning ma'naviy mulki sifatida qadrlaydi, o'tkinchi narsaga vaqtini sarflamaydi. Bunday qalb egalarining yaratgan asarlari, tarjimalari umrboqiydir. Endilikda biz Pushkin, Lermontov, Nekrasov, Tolstoy, Gorg'kiy, Mayakovskiyalar nomlarini faxr bilan tilga olamiz. Bu ulug' san'atkorlarning adabiyotimizdan muqim o'rin olishi 30—40 yillar ichida zahmatkash tarjimonlarimizning betimsol mehnati tufayli ro'yobga chiqdi.

30-yillar tarjimachiligi haqida gapirar ekanmiz, tarjimachilikka bag'ishlangan katta yig'inda Otajon Hoshimning nutqini eslab o'tish joizdir.

Ba'zi odamlar «Pushkin asarlarini o'zbekchaga to'la-to'kis va ravon qilib tarjima etish mumkin emas» desalar, bu bilan faqat o'zlarining til bilmasliklari va madaniyatsizliklarini oshkor qiladilar. O'zbek xalq adabiyotining namunalari, adabiy meroslarimiz, bu kungi usta yozuvchilarimizning asarlari yaqqol ko'rsatadiki, Pushkin kabi adiblarning asarlari barcha xususiyatlari bilan o'z tilimizga ko'chirila oladi. Oybek va Usmon Nosir kabi o'rtoqlarning tarjimalari bunga dalildir»¹. Munaqqid Otajon Hoshimning tarjimachilikka nisbatan g'ayri qarovchilarga qarata aytilgan o'tli so'zlari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. 30-yillarda rus adabiyotidan, rus tili orqali jahon adabiyotidan qilingan tarjima asarlari bugungi tarjimonlarimiz uchun ham bir maktab namunasi o'tashi tabiiydir.

Ana shunday adib va tarjimonlar qatorida o'zining qisqa, lekin sarmazmun umrida bor-yo'g'i ikki tomlik asarlar, ikkita poema va bitta ilmiy maqola tarjimasini meros qoldirgan Usmon Nosir ham sharafl o'rin tutadi. Ma'lumki, san'atkor ijodini hech qachon hajm belgilagan emas. Usmon Nosir shu «ozgina» ijodi bilan adabiyotimiz tarixida nurli iz qoldirgan omadli shoirlarimizdandir. U adabiyotimizga chaqmoqdek tez kirib keldi-yu, chaqmoqdek yorug' xotira qoldirdi. Bu xotira uning hayotga oshuftalik ruhini singdirgan, yorug' umidlarga to'la yosh qalbining orzu-armonlarini mujassamlantirgan asarlaridir.

Usmon Nosir xalqimizning sevimli shoiri sifatida qanchalar ardoqli bo'lsa, tarjimon sifatida ham shu tariqa hurmatga loyiq farzandlaridan biridir.

Ma'lumki, rus she'riyatining quyoshi bo'lgan Pushkin asarlariga, Lermontovning o'lmas she'riyatiga oldingi davrlarda ham o'zbek she'rxonlarida qiziqish bor edi. Boshqacha aytganda, o'zbek kitobxonlari daho shoirning asarlarini qadrlar edi. Biroq o'zbek kitobxonlari bu shoirlarning asarlari bilan inqilobdan keyin to'laroq tanishishga muyassar bo'ldi. Pushkin, Lermontov asarlari o'zbek tiliga iste'dodli shoirlarimiz tomonidan tarjima qilina boshlandi. Usmon Nosir ham Pushkinning «Bog'chasaroy fontani» va Lermontovning «Demon» poemalarini

o'zbekchalashtirdi. Usmon Nosirning tarjimonlik faoliyatini ko'pgina munaqqidlarimiz yuksak baholadilar¹⁷.

Usmon Nosirning tarjima qilish uchun Pushkin va Lermontovdan tanlagan asarlari uning talant yo'nalishiga yaqin bo'lgan poemalardir. Bu poemalar Usmon Nosir ijodiga xos bo'lgan isyonkor romantik yo'nalishdagi asarlar bo'lib, uning ruhiga nihoyatda yaqin tura di. Pushkinning bu asari xususida ulug' tanqidchi V. G. Belinskiy shunday degan edi: «Bog'chasaroy fontani»— bu yosh qalbning go'zal poetik xayoli, asarning yutuqlari va kamchiliklari zamirida yoshlikning muhri yotibdi. Bularga qaramasdan yoshlik nafasi ufurib turgan barcha asarlarda bo'lganidek, bunda ham to'liq kuch o'ychanlik kontseptsiyasi bilan almashinadi, saxiy qo'llar ato etgan hashamdor bo'yoqlar juda talabchanlik bilan tiniq va ravshan ifoda etilgan. Asar — beixtiyor, so'zsiz, hurmatga arziydigan ajoyib, sehrli guldasta»¹⁸. Agar biz ulug' tanqidchining bu asarga bergan bahosini Usmon Nosir yaratgan asarlarga ko'chirsa xato qilmagan bo'lardik. Chunki uning asarlarida ham hayotga chanqoq, jo'shqin orzular bilan yashayotgan, yorug' kelajakka intilayotgan lirik qahramonni ko'rasiz. Pushkinning kamolat ostonasida bitilgan asarlaridan bo'lmish «Bog'chasaroy fontani»ni Usmon Nosirning o'zbekchalashtirish uchun jazm etganligining sabablari ham shunda bo'lsa kerak.

Ma'lumki, A. S. Pushkin qahramonning xarakter xususiyatlarini asta-sekin ocha beradi. Bu uning xarakter yaratish tamoyillaridan biridir.

Asarning bosh qahramoni Garoy. U Qrimning hoqoni, ishi boshqa xalqlarni talashdan iborat. Belinskiy iborasi bilan aytganda, yovvoyi qalbli shaxs. Shoir bu yovvoyi qalbli odamda muhabbat tufayli insoniy his tuyg'ularining uyg'onishini ko'rsatadi.

A. S. Pushkinning ko'pchilik asarlarida bor bo'lgan xususiyat shundaki, shoir kitobxonning hamisha diqqatini tortib turish uchun asar boshidayoq sirli tugun tashlaydi. Bu sirli tugun Garoyning g'am-alam bilan qahrabo chilim tutatib, o'z o'tiga o'zi qovrilib o'tirishidan iborat. Garoyning bu holati kitobxon diqqatini

¹⁷ Фафуров И. Усмон Носир. Тошкент, 1967; Умарбекова З. Лермонтов и ўзбекская литература. Ташкент, 1973.

¹⁸ З Белинский. В. Г. Сочинение Александра Пушкина. М.— Л., 1949.

tortmay qo'ymaydi. Buo'rinda muallif ikki narsani ko'zlagan: birinchisi Garoy xarakterini portreti orqali ko'rsatish bo'lsa, ikkinchisi asar rivoji uchun imkoniyat yaratish. Biz original nusxadagi Garoy portretini o'zbekchasi bilan qiyos qilsak, undagi tashqi ko'rinish mubolag'asiz aynan ko'chgan desak xato qilmaymiz. Qahramon ruhida o'zgarishlar, iztirob chekishlar o'zbek kitobxoniga ruhiga ham ta'sir etadigan darajada konkret berilgan. Garoyning goh g'azablanib, goh g'amga botib o'ltirishining boisini saroy ahli bilmaydi. Ana shu holatni tarjimon juda to'g'ri, shu holatga mos tushadigan «sumrachnom» so'zi o'rniga «mubham» so'zini qo'llaydiki, boshqalarga noma'lum bo'lgan qahramondagi mavhumlikni bu so'z ifodalaydi. Asarning kirishidagi ilk misralarni ko'zdan kechiraylik: «Гарой сидел, потупя взор: Янтарь в устах его дышился»; satr laridagi chilimning tutab turishini, Garoy shu chilim: tutuni orasida mavhum bir holatda o'tirishini nazarda tutsak, satrdagi qahramon holatiga bo'lgan shoirning ishorasi tarjimon nazariidan tushgandek tuyuladi. O'zbekchada bu misralar: «Qovoq solib, o'tirar Garoy, Lablarida qahrabo chilim» tariqasida olingan. Biroq qahramon holatini berishdagi tashqi xususiyatlar ham uning ichki dunyosini ochishga qodir bo'lgan omillardir. Tarjimon shularni nazarda tutib bo'lsa kerak asosiy e'tiborni Garoyning tashqi portret chiziqlariga tortadi.

Shoir hali Garoy portretini to'la-to'kis chizganicha yo'q. U kitobxonga ravshan bo'lishi uchun qahramon holatini butun borlig'icha tasvirlaydi. Mana, qahramon portretining so'nggi misralari:

Русча:

Живая строгое чело

Волненге сердтсе вьфажаает.

Так бурнм тучи отражаает

Заливо змбкае стекло.

O'zbekcha:

To'lqinlanib bilmay sukutni

O'ynab turgan ko'rfaz oynasi.

Aks etganday qora bulutni

Uning jiddiy manglayi ayon

Dil to'liqin aylardi bayon.

Original varianti bilan o'zbekcha nusxasining bu band tarjimasiga nazar tashlasak, avvalo, tarjima nusxasidagi asl nusxaga nisbatan bu yerda bir satr ortiqcha ekanligini ko'ramiz. Bu tarjimonning o'zboshimchaligi yoki ojizligi emas, albatta. U asar ruhi, mantiq yo'nalishidan kelib chiqib bir satr ortiqcha qilib yuborgan. Ko'pchilik hollarda bunday xususiyat tarjimonning fazilati hisoblanadi. Shu ma'noda fazilatki, tarjimon — ijodkor tarjimaga, ayniqsa badiiy asar tarjimasiga ijodiy yondoshmas ekan, muvaffaqiyat qozona olmaydi. Bunda shoirning obrazli ifodasi — ko'rfaz osmonidagi quyundek qora bulutlarning suvdagi aksini, qahramonning o'ychan, keng, yarqi roq peshonasida qalbidagi tumanli, g'azabnok tuyg'ulari aks etayotganligi bilan qiyoslanadi. Ana shu obrazli ifodani asl nusxadagidek berish uchun Usmon Nosir hajman bir misra orttirishga o'zida rag'bat sezadi. Natijada u ko'nglidagidek ish qilgan. Originaldagi obrazli tasvirning to'laqonli ifodasini sahlashga muvaffaq bo'lgan. Usmon Nosir poemaning ruscha nusxasidagi vaznda o'zbekchalashtirishni o'ziga lozim topgan. Bu poema rus she'riy tizimida yozilgan. Ma'lumki, bu she'riy shakl satrlarda shiddatning tezkor, ehtirosli hislarning quyuq bo'lishini, to'g'rirog'i, shoirning poetik olamidan kurashchan tuyg'ularni talab qiladi. Kurashchanlik deganda biz umum kurashchanlik g'oyasining keng ma'nosini tushunmasligimiz kerak. Kurashchanlik sof she'riyatning ham o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Bu kurashchanlik satrlarning o'zida aks etadi. Yana shuni aytish kerakki, bu kurashchanlikni hayotdan uzib, alohida qarasak yoki turmushning mevasi ekanligini unutib qo'ysak xato qilgan bo'lamiz. Demak, she'riyatdagi kurashchanlik tushunchasi deganimizda uning ichki va tashqi mazmuniga e'tibor berishimiz kerak. Biz bu o'rinda Pushknn she'riyatidagn umumkurashchanlik ruhini emas, shu ruhning bevosita ta'siri bo'lgan, uning ijodiy uslubini belgilaydigan satrlardagi poetik kurashchanlik haqida so'zlab va bu kurashchanlikning tarjimada saqlanishi haqida fikr yuritayapmiz. Tarjimon originalga ba'zan ijodiy yondoshadi, ba'zan aynan tarjima qiladi. Aynan yoki ijodiy yondoshish hamisha tarjimon ixtiyorida bo'lib o'tadigan jarayon emas.

Haqiqiy tarjimon asar mazmunini, yozilish tarixini, muallif uslubini anglagan holda asl nusxa ruhiga o'zini moslashi lozim va shunga qarab asar oqimiga bo'ysunishi kerak. Bundan tashqari o'girilayotgan til xususiyatlarini, xalq psixologiyasini, ruhini ham doimo nazarda tutish foydadan xoli emas. Usmon Nosir shu ma'noda ba'zi o'rinlarda originalga ijodiy yondoshadi, undagi ba'zi epitetlarni buzib tarjima qiladi. Bu bilan tarjimonni aslo ayblab bo'lmaydi. Garoy ruhiy holatining berilishidagi shoir qo'llagan epitetlarni eslasak, bunda «burnie tuchi» epiteti bor. Bu epitetni tarjimon «qora bulut» deb o'giradi. Agar biz ruscha nusxa dagi «burnie» so'zi bilan «qora» so'zining mazmuni jihatdan qarasaq boshqa-boshqa ekanligini ko'ramiz. Biroq tarjimon aynan «bo'ron bulutlari» yoki «dovul bulutlari» deb o'girganda maqsadga muvofiq bo'lmas, o'zbek kitobxonni ta'biga to'g'ri kelmasdi. Bu o'rinda Usmon Nosir Garoy portretini berishda syujet oqimi yo'nalishiga ham, she'riy shaklga ham, ehtirosli to'lqin tempiga ham xalaqit bermay o'zbekchalashtirgan. O'zbek kitobxonni Garoy portretini Pushkin qay tarzda ifodalagan bo'lsa o'zbekcha nusxasida ham shu tarzda ko'ra oladi.

Pushkin boshqa asarlarida bo'lganidek bu asarida ham o'zining an'anaviy tamoyilida syujet rivojini davom ettiradi. U kitobxon ko'z oldida o'z qahramonini to'la gavdalantirgach, undagi mubhamlikni asta-sekin ocha boradi. Garoy Qrim xoni, uning saroyida qo'shni xalqlardan asir qilib olib kelingan go'zal xotinlar ko'p. Shoir asosiy diqqatni uning haramiga qaratadi. Balki uning chekayotgan azoblari shundadir. Xonning yuziga oyoq qo'yib xotinlardan birontasi xiyonat qilgandir. Lekin bunday holning ro'y berishi mumkin emas, Haram og'asi nihoyatda sergak, o'z ishiga puxta shaxs, xonga sodiq, xotinlarga nisbatan juda beshafqat. Pushkin juda qisqa bo'lsada haram og'asi obrazini yorqin qilib yaratgan:

Русча:

Меж ними ходит злой евнух

И убежат его напрасно:

Эго ревнивый взор и слух

За всеми следует ежечасно.

Эю стараньем заведен Порядок
вечный, Воля хана
Эму единственный закон;
Святую заповедь корана;
На страже наблюдает он.
Эго душа любви не просит;
Как истукан, он переносит
Насмешки, ненавист укор,
Обиди шаласти нескромной,
Презренге, просѣби, робкий взор,
И тихий вздох, и ропот томний.
O'zbekcha:
Ortlarida ularni poylab
Yovuz og'a yurar hoyhaylab,
Undan qochish, berkinish bekor:
Hasadli ko'z, ding qulog'i bor.
U hiylakor, u laganbardor,
Har bir ishdan voqif, xabardor.
Unga o'la o'rnashmish mangu
Abadiy bir tartib saroyda,
Unga xonning izmi har joyda
Yagona bir qonundirki, u
Uni qurhon farzidek bilar;
Dilda saqlar va bajo qilar.
Uning ko'ngli sevgi istamas,
U but kabi sevgidan mahrum,
U hissizlik domida mahkum:
Na ko'z yoshi, na yumshoq nafas,
Na ta'naga bermas e'tibor;
Asiralar chekkan ohu zor

Unga asti qilmaydi ta'sir,
Pinagini buzmaydi tahqir,
Yolvorishga quloq solmaydi,
Haqoratni qilmaydi pisand,
Hech na uni yumshatolmaydi,
Tosh qalbila mag'rur va xursand.

Pushkin haram og'asining xulq-atvoriga xos xususiyatlarni konkret obrazlarda aks ettiradi. Undagi bor xususiyat o'quvchiga miridan sirigacha ayon bo'ladi. Usmon Nosir ana shu konkret detallarni Pushkinga xos ifodali qilib berishi va undagi mazmunni kitobxon xotirasida qoladigan darajada predmetlashtirishi lozim edi. Shuning uchun tarjimon original, shaklini, undagi emodiyani saqlash uchun Pushkin qo'llagan detallarning strukturasi o'zgartiradi. Struktura o'zgargach, albatta, hajmga ta'sir qiladi. Shu jihatdan bu parcha asl nusxaga deyarli ikki barabar ko'paygan. Parchaning bu darajada cho'zilib ketishida tarjimonning ko'zlagan niyati bor. U ham bo'lsa asl nusxa quvvatini saqlashdir. Lekin «cho'ziq hajmdagi ma'no, ma'nosizlikning bir ko'rinishidir». Ammo Usmon Nosir bu parchada ma'nosizlikka yo'l qo'ymagan. Obraz xarakter—xususiyatiga Pushkin qanday e'tibor bergan bo'lsa, Usmon Nosir ham haram og'asining harakter xususiyatlarini bosqichma bosqich ocha boradi. U har bir detalni, haram og'asiga xos bo'lgan eng nozik holatlarni ham diqqatdan chetda qoldirmaydi. Ulkan olim Marietta Shaginyan Avetik Isaakyanning rus tiliga tarjima qilingan asarlari xususida fikr yuritib, jumladan shunday degandi: «Badiiy aniqlik uchun tarjimon farq qilarli darajada erkin yondoshishga haqli, lekin erkinlik shu zayl bo'lsinki, niyat fikrni o'zgartirish emas, originalga xos tarjima asarning go'zal bo'lishiga qaratilmog'i kerak». Demak, tarjimondagi erkinlik faqat tarjima asarini o'qishli qilish uchun beriladi. Usmon Nosirdagi erkinlik xuddi shu niyatdadir.

Pushkin haram og'asining butun qilmishlarini, uning xulq-atvorini ko'rsatar ekan, xon haramida hech qanday xiyonatning yuz bermasligini kitobxonga uqtiradi. Shu bilan muallif yana asarning bosh qahramoni Garoydagi tundlik, g'am-anduh chekishlarining boisini bilishga kitobxonda qiziqish uyg'otadi. Kitobxonning

diqqatini asar oqimidan chetga burilishiga yo'l qo'ymaydi. Shoir haram og'asini, haram qizlarining hayotini kitobxonga tanishtirgach asosiy maqsadga ko'chmaydi. Garoyning ruhiy holati tasviriga o'rin beradi:

Русча:

Что ж полон грусти ум Гирея?

Чубук в руках его потух:

Надвигим, и дохнуть не смея,

У двери знака ждет евнух.

Встает задумчивѣш властитель;

Пред ними дверь настезь.

Молча он Идет в заветную обитель

Еоде недавно милых жен.

O'zbekcha:

Garoy nega tinmay chekar g'am?

SHilim o'chib qolmish qo'lida.

Botinolmay dam olgani ham

Ostonada, xonning yo'lida

Imo kutib turadir og'a,

Ibo tutib turadir og'a.

Uyga botgan hukmdor turar

Oldidagi darcha ochiq, u —

Qo'ngli cheksiz qayg'uga to'lgan

Mana bu parchada Garoyning dahshatli, yovvoyi qalbli qiyofasini chinakam insoniylik egallaydi. Biroq undagi bu o'zgarishni muallif kitobxonga to'la ochib bermaydi, faqat bir ishora bor, xolos. Kitobxon bu parchada Garoy chekayotgan g'amning sababinigina anglaydi. U ham bo'lsa xonning sevimli xotinlarining qabri tomon yo'l olishidir. Bu parchada ham tarjimon satrlar sonini oshirib yuborgai. Hatto originalda bo'lmagan satrlar ham tarjimada bor. Bunday hol birinchidan, tarjimonning o'ziga nihoyatda ishonchi bo'lsa, ikkinchidan original ruhiga kirib ketganidan darak beradi. Agar Usmon Nosir bu ortiqcha satrlarni o'zicha bilag'onlik

qilib qo'shgan bo'lganda edi, bu aslo kechirib bo'lmaslik darajadagi ish bo'lar edi. Mana, haram og'asining Garoyni kutib turishidagi holati: «Imo kutib turadir og'a, Ibo tutib turadir og'a». Originalda «Ibo tutib turadir og'a» satri yo'q. Biz yuqoridagi keltirilgan haram og'asi tasviriga bag'ishlangan parchani eslasak, Usmon Nosirning ifodasi bu yerda juda-juda mos tushadi. Haram og'asining qullarcha egilib xonning bir imosiga ilhaq turishini ko'z oldiga keltirgan kitobxon bu satrlar ayni o'rinda qo'llanilganligini his etadi. Bu parchaning oxirgi bandidagi «заветную обитель» iborasi «qabr» ma'nosida qo'llanilib, fikrga yana ham konkretlik baxsh etadi. Usmon Nosirdagi bu xil erkinlikni faqat asar ruhiga chuqur kirib borgan, Pushkin niyatini yaxshi anglagan shoirgina uddalay olardi. Usmon Nosirning o'zi, avvalo, Pushkin, Lermontov xarakteridagi shoir edi. Garchi u hali ijodiy kamolatga erishib ulgurmagan bo'lsa ham, uning ijodiy ufqi, poetik olami nihoyatda sarhad bilmas keng edi, O'zining ta'biri bilan aytganda, «lug'ati so'zga boy» shoirlardan bo'lgan. Uning lug'atidan so'zning ko'pligi genial shoirning asari—«Bog'chasaroy fontani» tarjimasida yaqqol ko'zga tashlanib turibdi. U Garoy xarakteridagi nozik holatlarni, haram og'asining butun xulq-atvorini chinakamiga badiiy obrazlarda originalga to'la monand holatda berishga erishgan. Biz asar syujeti rivojiga nazar tashlasak, bu hol yana ham ko'zga yaqqolroq ko'rinadi. Asarda Garoy cheqayotgan iztiroblarining asosiy sababchisi bo'lmish Zarema va Mariya kabi ayollar obrazi bor. Ma'lumki, Pushkin asarlaridagi oddiy personajlar ham individual xarakterga ega bo'ladi. Pushkin ularning xarakterlarini bizga oddiy bo'lib tuyuladigan detal va chiziqchalarda ixchamgina ifodasini berib ketadi. Pushkinning barcha asarlarida bo'lganidek, «Bog'chasaroy fontani»dagi barcha obrazlarning hammasida o'ziga yarasha badiiy «yuk» bor. Usmon Nosir o'sha badiiy «yuk»ni yaxshi his etadi. Asardagi Zarema yoki Mariyani ko'z oldingizga keltirsangiz, ularning jonli suratini ko'rasiz:

Vafosizlik qildi xon... Ammo,
Ey gurji qiz, senla chiroyda
Kim tenglashar? Hattoki oyda
Dahvo qilsa, bo'lur muammo.

Chambar qilgan soching, ey pari,
Ilon kabi yurak yoradir.
Yarqiragan ko'zing javhari
Qundan yorug', tundan qoradir.
Dil dardini kimlarning sasi
Sendan kuchli bayonlay bilar?
Kimning shirinshakar bo'sasi
Senikidan jonlilik qilar?
Senga bir yo'l ko'ngli tushgan er
Qanday qilib boshqa ko'rkni der?
Lekin, loqayd, zolim Garoyxon
Haramiga Polg'sha qizini
Asir qilib olgandan buyon,
Sendan nari tutib o'zini,
Xo'rlab seni tashlab qo'ydi-yu,
O'zi g'amgin, tunlar beuyqu
Tanholikni ayladi odat
Qo'llaringdan ketdi saodat!...

Biz bu parchada ruscha nusxasini keltirib o'ltirmaymiz. Bunda Zaremaning ruhiy o'ylari, uning ichki ruhiy holatlari go'yo muallif tili bilan berilayotgandek. Bu aslida Zaremaning o'z-o'ziga aytayotgan so'zlaridir. Bu fikrlarni qattiq sevgan, sevgisiga, chiroyiga ishongan ayolgina ayta oladi. Zaremaning bu o'ylarida sharq qizlariga xos bo'lgan mag'rurlik ham, bu mag'rurlikning sinishi ham o'z aksini topgan. Tarjimon muallifning Zarema tasvirini ijodiy qayta chizadi. Zaremaning tashqi ko'rinishini Pushkin tasvirlar ekan, uning sochining nihoyatda uzun ekanligini ta'kidlab o'tir masdan, «Вокруг лилейного чела, Ты косу дважды обвила» deb sochlarini boshiga chambar qilib qo'yganligini tasvirlab kitobxonda uning butun tashqi qiyofasini to'laligicha ko'rsatadi. Usmon Nosir Pushkinning bu obrazli ifodasini jonlantirib chambar qilingan sochini ilonga o'xshatadi. Albatta, bu o'xshatish yangi emas, u klassik an'analardan foydalangan holda yaratilgan. Tarjimon agar Pushkin

tasviridagidek sochini boshiga ikki o'rab chambar qilib qo'yibdi tarzida tarjima qilganda bu albatta effekt bermagan bo'lardi. Chunki sochni chambar qilib qo'yish bu faqat kavkaz qizlariga xos bo'libgina qolmay, butun sharq qizlariga xos xususiyatdir. Shuning uchun ham o'zbek kitobxonlari bunday tasvirda hech qanday yangilik ko'ra olmaydi. Bu xil tasvir Pushkin yashagan davri rus kitobxonlariga nihoyatda yangilik va hayratli tasvirlar bo'lishi shubhasiz. Usmon Nosir tarjima jarayonida asarning bu xil xususiyatlarini nazarda tutgan va kitobxonlarga ta'sirli bo'lishi uchun asl nusxa mantiqiga zid kelmaydigan darajada erkin yondoshib, o'zi kashf qilgan satrlarni qo'shadi. Shu keltirilgan parchaning oxirgi baytlarini ko'zdan kechirsangiz, Usmon Nosirning originalga nihoyatda erkin va dadil yondashib, ijodiy tarjima qilganligini ko'rasiz. Bunday «Qo'llaringdan ketdi saodat!.. kabi satrlar originalda yo'q. Bu misralar bir qarashda muallif bayonidek tuyuladi. Biroq Zaremaning xarakter mantiqidan kelib qarasangiz, alamzada, o'zining muhabbat qo'ygan kishisidan ayrilgan xotin nolasi ekanligini his etasiz. Bu parcha ham muallif bayoni rolini, ham qahramon ruhiy holatini ko'rsatadigan Zaremaning nutqi vazifasini bajaradi. Mana shu ikki vazifaning birikib bir parchaning omuxta kelishi muallifga keyingi voqealarning kitobxon uchun ishonarli chiqishiga, kompozitsion yaxlitlikni tahminlashga xizmat qiladi. Tarjimon Pushkindagi bu xususiyatni chuqur idrok qilgan va shunga xilof tushmaydigan darajada tarjimaga nozik ta'b bilan yondoshgan. Zarema qo'lidagi saodatni indamasdan berib yuboradigan ayollardan emas. U qo'lidagi saodat, baxt, ya'ni Garoyning unga bo'lgan iltifotlarini yana avvalgisidek tiklashga harakat qiladi. Buning uchun o'zidan ham «zo'r» bo'lib chiqqan polyak qizi Mariyani Garoydan sovitishi yoki uni yo'q qilishi kerak edi:

Tingla meni, chiroyliman men,
Menga hech kim tenglashay demas
Bir sening haramda butun
Raqib bo'la olarding menga; ;
Ammo aytib qo'yay men senga
Tug'ilganman ehtiros uchun,
Sen men kabi seva olmaysan,

Sovuq ko'rking bilan sen nechun
U bir ojiz dilni qiynaysan?
Na haqqing bor, na hadding sening,
Qo'y Garoyni menga: u mening
Bo'salari yonar betimda,
Issig'i bor hali etimda.
Menga qathiy qasamyod etgan.

Usmon Nosirning tarjimasi birinchi satridagi ma'noni ikkinchi satrdagi mazmun bilan kuchaytirib fikrning ta'sir kuchini oshirish uchun qo'llangan bu tamoyili garchi original nusxasidai hajman ko'p bo'lib ketsada, o'quvchiga zarracha salbiy ta'sir qilmaydi. Aksincha ma'no yanada ravshanlashib misralardagi emotsiya, poetik ehtiros kitobxon ruhini chulg'ab oladi. Keltirilgan parchadagi originalning birinchi satrlarida Zarema Mariyaga haramda sendan bo'lak hech kim menga xavflimas degan ma'noda so'zlasa, tarjimon o'zicha «Menga hech kim tenglashay demas» misrasini qo'shgach, originaldagi mazmunga qaytadi. Biroq u asl nusxani ham aynan tarjima qilmay «Bir sengina haramda butun, Raqib bo'la olarding menga» tarzida o'zbekchalashtiradi. Parchaning oxirgi satrlariga e'tibor beraylik. Tarjimon bu o'rinda ham shu printsipti qo'llaydi. «По мне горят его лобзанья» satridagi ma'noni ikki satrda ifodalaydi:

Bo'salari hamon betimda

Issig'i bor hali etimda.

Bu o'rinda shuni aytish kerakki, tarjimon birinchidan ko'proq xalq dostonlari an'analarga xos tempda misralar tuzadi. Bundagi jo'shqin hayajonli satrlar oqimida mantiqqa xos satrlarning quyilib kelishi tabiiy. Usmon Nosirning tarjimonlik faoliyatida xalqimiz og'zaki ijodining roli benihoya katta ekanligi ham bu asar tarjimasida namoyon bo'lib turibdi. Bu xil xususiyat tarjimon poetik dunyosining bir tomoni bo'lsa, ikkinchidan Pushkinning asarida ham rus xalqi og'zaki ijodining ruhi ustunligidadir. Bu xususiyatlarning bir-biriga yaqinligi tufayli Usmon Noeir tarjimaning ba'zi o'rinlardagi juda erkin qo'yib yuborilgani original ruhiga zid tushmagan. Aksincha effekt bergan. Yuqoridag'i «Issig'i bor hali etimda» satrisiz

ham tarjimon asl nusxa mazmunini saqlagan bo'lardi. Qahramon nutqidagi yonib gapirishlar boshqacha aytganda qo'lidan ketgan saodatni qaytarib olish uchun raqibi sanalmish bir kimsa oldida bunday so'zlarni "kuyunib aytishi tabiiy bir holdir. Shuning uchun ham bu satrlar tarjimon tomonidan faqat asar ruhini to'ldirish, yoki qofiya uchun o'zicha to'qilgan bo'lmasdan, mantiq talabi bilan tarjimonning o'ziga xos badiiy kashfiyotidir.

Asarda Mariya obraziga muallif ko'p o'rin ajratmaydi. Zaremaning unga qarata aytgan gaplari tufayli bu mahsuma qizni to'laroq anglaymiz. Asarda Mariya tasviriga ajratilgan parchalardagi mubham bo'lib qolgan o'rinlarni Zaremadagi harakat to'ldiradi, oydinlashtiradi, natijada kitobxon ko'z oldida bu qizning go'zal surati gavdalanadi. Bu tasvirlar o'zbekchada ko'p va zap me'yorida berilgan.

Garoyda muhabbat ezgulik, yaxshilik uyg'otdi. Undagi uyg'ongan odamiylik Mariyaga bo'lgan muhabbatidir. Yovvoyi qalbli bir shaxsda insonga bo'lgan muhabbatning uyg'onishi, uni qadrlashi, muallifning masalani bu tariqa qo'yishi o'z davri uchun muhim masala edi. Asardagi masala bugungi kunda ham ibratomuzdir. Garoy ruscha nusxasida qanday harakat qilgan bo'lsa o'zbekcha variantda ham shunday harakat qiladi. Garoyning xatti-harakatlari borligicha kitobxon ko'z oldida gavdalanadi. «Dvoretz ugryumq» iborasini Usmon Nosir «tumraygan saroy» deb oladi. Shunday bitta ibora tarjimasining o'zida tarjimonning topqirligi namoyon bo'ladi. Garoy Mariya o'limidan keyin yana talon-tarojlikni boshlaydi va shu bilan ovunmoqchi bo'ladi. Lekin qilayotgan xunrezliklar ham Garoyni ovuntira olmaydi. «Но в сердце хана чувств иных, Таится пламень безотрадный». Sho'ir uning bu holatini shunday ifodalaydi. Jang-jadalning ayni qizigan chog'ida ham u Mariyani o'ylaydi, urushlarda o'lib ketishni afzal ko'radi. Lekin tarjimada bu hol «Ammo, uning yuragi qora, olovlanar unda boshqa his» shaklida o'zbekchalashtirilganki, bu yerda muallif aytmoqchi bo'lgan fikr mubham qolgan, biroq parchaning umum ruhi asosiy maqsadni ifodalaydi.

2.2. M. Yu. Lermontovning «Demon»i Usmon Nosir tarjimasida

Usmon Nosirning yana bir muhim tarjima asari M. Yu. Lermontovning «Demon»idir. «Bog'chasaroy fontani» A. S. Pushkinning kamolot bo'sag'asida yozilgan asari bo'lsa, «Demon» esa Lermontov poemalarining eng mukammali, shoir iste'dodini namoyon qilgan yirik asarlaridandir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Usmon Nosir bu ikkala shoirdan tarjima uchun asar tanlar ekan, tanlagan asarlari ma'lum bir jihatlari bilan bir-biriga yaqin turadi. Ikkala asarning syujeti ham sharqqa xos bo'lgan voqealar asosida yara tilgan. Bir so'z bilan aytganda, ikkala asarda ham sharqona ruh ustun turadi. Bundan tashqari «Demon» tarjimasida gapirar ekanmiz, poemadagi isyonkor ruhni 30-yillar adabiy muhiti bilan bog'liq holda, tarjimonning kurashchanlik tabiatiga yaqinligi xususida to'xtalmay o'tib bo'lmaydi. 30-yillarda adabiyotimizdagi bosh tendensiya deymizmi, yoki adabiyotimiz oldidagi vazifalardan biri deymizmi baxtli turmushni, erkin mehnatni tarannum etish turardi. Bu jihatlari bilan «Demon» asarining o'sha yillarda tarjima qilinishining ahamiyati katta edi. «Demon» Belinskiy ta'rificha «osmonga nisbatan mag'rurona dushmanlikdir», ya'ni hokimlikka, mavjud tuzumga dushmanlikdir. Demak, shunday ekan bu asarni nafaqat o'zbek adabiyotining yuksalishiga, shuningdek xalqimizning ma'naviy kamolatiga ham ta'sir etgan asarlar qatoriga qo'shsak xato qilmaymiz. Bizning bu xil fikrlarni keltirishimizdan maqsad shuki, Usmon Nosirdagi bo'lgan davr nafasini sezishdek, o'z davriga nima kerak, nima nokerakligini his etishdek fazilatlarini ham uqtirib o'tishdir. Usmon Nosir o'zidagi bu xil xususiyat bilan ham bugungi tarjimonlarimizga ibrat bo'la oladi.

Biz «Demon»ning o'zbekcha nusxasini o'qir ekanmiz, tarjimonning nazariy bilimining ham yetukligini his etamiz. U asar tarjimasiga kirishar ekan, avvalo matnning ma'nosini uqib oladi. Shoirning badiiy niyatini, asarning pafosini, ritmikasini doimo nazarda tutadi. Lermontovga xos bo'lgan oddiy xalqona iboralarga yangicha ruh beradi. Obraz xarakterini ochadigan badiiy elementlarni doimo diqqat markazida tutadi. Xuddi «Bog'chasaroy fontani» tarjimasidagi qo'llagan uslublarini qo'llaydi. U asarga o'ta erkin, to'la, aynan yondoshmaydi, erkinlikning ham, aynan yondoshishning ham qusur va fazilatlarini anglagan holda

ish ko'radi.

Asarning bosh qahramoni Demon jannatdan haydalgan quvg'indi bir zot:

U zdeonlar dargohi ulug'

Ho'dovandni sevar, inonar —

Edi. Na kin, na shubhasi bor

Bu baxtiyor va to'ng'ich maxluq!

Bekor, beburd kechgan asrlar

Vasvasaga solmagan, imon

Toza edi... Tag'in nimalar...

Eslagani yo'q edi imkon.

Shoir tasviridagidek u quvg'inga sabab bo'ladigan ..jinoyat qilgani ham yo'q, pok-pokiza bir mahluq. Nima uchun Demonni xudo dargohidan quvlaydi? Nima uchun Demonning qilmish-qidirmishi yovuzlik bo'ladi? Bu savollarning javobini asarning davomida topamiz. Biz keltirgan parcha asarning ibtidosi, obraz xarakteridagi yaxshilik, ezgulik, poklik haqidagi qisqa bir xarakteristika, ya'ni axborotdir:

Когда он верил и любил,

Счастливецга первенец творелья!

Не знал ни злобм, ни сомненья,

И не грозил уму его

Веков бесплодных ряд унмльы...

И много, много... и всего

Припомнить не имел он силыны

Usmon Nosir Demonning tangri dargohidagi hayoti xususida asl nusxaga nisbatan kengroq yondoshadi. O'zbek kitobxonlari uchun tushunishga oson bo'lishi mumkin bo'lgan yo'lni ko'zlaydi. Ruscha variantdagidek faqat Demonning hayotiga tegishli bo'lgan qisqa xabarni Usmon Nosir bo'rttiribroq, islom aqidalaridagi rivoyatlarga asoslangan holda tarjima qiladi. Tarjimadagi bu xil xususiyat, birinchidan, asarning keyingi syujet liniyalari bilan yana ham mustahkamroq bog'lash imkonini yaratrsa, ikkinchidan, asar ruhini o'zbek xalqining

tabiatiga yaqinlashtiradi. Chunki islom dinidagi rivoyatlarning tavsificha, xudo shaytonni insondan oldin yaratgan. Usmon Nosir tarjimasida xuddi shunga ishora qilib Demonni «to'ng'ich mahluq» deb ataydi. Bunday sifatlash, albatta, asl nusxada yo'q. Biroq Lermontov tasviridagi Demonning xudo dargohidagi hayoti tarjimonning bu xil yondoshishini inkor etmaydi, aksincha asardagi Demon xarakterining ochilishida ijobiy rolg' o'ynaydi¹⁹.

Bu o'rinda Lermontovning maqsadi ham shu ma'noni bermoq, tarjimonning ham. Tarjimon bu ma'noni bir oz to'laroq, konkretroq ifodalaydi. «Demon»da ham mutarjim «Bog'chasaroy fontani»dagidek asarning vaznini, shaklini, intonatsiyani saqlaydi. Shuning uchun asardagi shiddatli oqimni, satrlardagi taranglikni saqlashga muvaffaq bo'ladi. Lekin asar hajman kengayib, satrlar soni oshgan. Bu asarning shakl va mazmun birligiga putur yetkazmagan.

Asardagi Demonning jannatdagi hayotiga shu tariqa bir oz to'xtalgach, uning darbadar hayoti tasvirlanadi. U Kazbekning olmosday yarqiragan cho'qqilaridan, shishaday tiniq buloqlaridan, go'zal bog'-rog'laridan hamma narsalarni hayratga qoldirib, nafrat g'azabini sohib o'tadi.

Shoir Demonning darbadar hayotini, uning bo'ysunmas ruhini, har narsaga qodir irodasini tasvirlar ekan, uning xarakteridagi yovuzlikning nihoyatda dahshatli ekanini Kavkazning betakror go'zal manzaralariga, go'zal odamlariga, qizlariga kontrast qo'yish yo'li bilan ko'rsatadi. Demonni yerdagi ana shunday go'zalliklar ham ovuntira olmaydi, diqqatini tortmaydi.

Toshday qattiq ko'ngli yumshamay

Tuyolmadi na quvvat, na his

Neki ko'rdi, sira xushlamay

Unga nafrat yog'dirdi iblis!

Usmon Nosir asardagi berilgan tabiat manzaralarini ham latif misralarda asl nusxaga hamohang ifodalaydi. Original bilan bahs qila oladigan tasvirlar chizadi. Bu go'zal tasvirlarga bo'lgan Iblisning munosabati ham tarjimada o'z aksini topgan.

San'atkorning san'atkorligi shundaki, u oddiy so'zlar, xalqona iboralar bilan o'z

¹⁹ Лермонтов М. Ю. Танланган асарлар. 2 томлик. 1том. Тошкент, 1955, 166бет.

fikrlarini soddagina ifodalaydi. Biz keltirgan Iblis xarakteriga taalluqli «toshday qattiq» iborasini olaylik, aslida originalda «besplodnoy» soʻzi berilgan, bu soʻz «samarasiz», «mevasiz», «pushtsiz» kabi maʼnolarni anglatadi. «В груди изгнанника бесплодной» misrasi «Toshday qattiq koʻngli yumshamay» tarzida oʻzbekchalashtirilgan. Agar tarjimaga bu tariqa yondoshsak Usmon Nosirning tarjima uslubini hech qachon anglab yetmagan boʻlardik. Umuman, bu ikki satrni muqoyasa qilsak, ular bir-biridan keskin farq qiladi lekin asar oqimida Demon xarakterini ochishda ikkisi ham oʻzining badiiy xizmatini oʻtaydi.

Lermontov Demonning xatti-harakatini bosqichma bosqich koʻrsatar ekan, iblisning bor xulqi kitobxon koʻz oldida gavdalana boradi. Oʻquvchi uning hayotga, butun mavjudotga nisbatan yovuzlik, nafrat toʻla qarashlarida qandaydir dahshatli voqealar kutadi. Asarning oqimi ham hadeganda bunday situatsiyaga olib kela bermaydi. Asarga yangi voqealar, yangi obrazlar kirib keladi. Tarjimon ham asar oqimini, undagi ruhni juda sinchkovlik bilan kuzatib, Kavkaz tabiatini, uning ajoyib ranglarda tovlanadigan manzara larini oʻzbekchada ham ajib tarovat bilan gavdalandiradi. Maʼlumki, chinakam sanʼatkorlar asarlarida voqealarning rivoji, qahramonlarning ruhiy holatini berishda manzaralar juda katta rolgʻ oʻynaydi. Baʼzi oʻrinlarda manzaralar orqali sanʼatkor oʻzining butun gʻoyasini ifodalashi mumkin. Usmon Nosir ham manzaralarga befarq qaraydigan shoirlardan emas. Shuning uchun ham u Lermontov yaratgan goʻzal Gruzianing dilbar tabiat tasvirlarini ijodkor sifatida qadrlaydi, juda hurmat bilan qaraydi. Originaldagi Kavkazning soʻlim tabiat manzaralari bevosita oʻzbekcha nusxasida ham jonli bir holatda, ajoyib rassom qalamidan chiqqan tasvirlardek turfa xil boʻyoqlarda jilolanadi.

Maysa — gilam yozgan vodiylar

Goʻyo chaman-chaman guliston.

Kumush kabi buloqlar joʻshqin,

Jimirlaydi tubida toshi...

Shalolalar sachratgan uchqun

Balki, gurji qizining yoshi.

Qora sochi bamisli sunbul

Suluv qizlar muhabbatini
Gul shoxida o'qiydi bulbul.
Marmar kabi musaffo tuni
...Ana shunday go'zal tabiat
Buni asti xursand qilmadi (335bet).

Bu manzaralarni talqin qilishdan oldin ulug' tanqidchi V. G. Belinskiyning ushbu fikrini eslab o'tish lozim. U yozadiki: «Badiiy tarjimada qo'shimcha qilish ham, tushirib qoldirish ham, matnni o'zgartirish ham mumkin emas. Agar asarning kamchiliklari bo'lsa, ularni shundayligicha berish zarur»²⁰. Agar biz ulug' tanqidchining fikriga asosan bu asar tarjimasiga yondoshsak bir jihatdan tarjimonga jabr qilgan, xato yo'l tutgan bo'lardik. Asarni o'z bo'lishicha tarjima qilish bu yaxshi. Ammo tarjima asari ko'p narsa yo'qotadi. Biroq V. G. Belinskiy ta'kidlab o'tganidek, asarning kamchiligini «tuzatish» bu tarjimonning vazifasi emas, albatta. Ba'zi asarlarda shunday kamchiliklar bo'ladiki, bunday kamchilikni muallifning kamchiligi deb atab bo'lmaydi. Bunday kamchiliklar o'sha davr adabiy saviyasi va muhiti bilan bog'liq, ya'ni davrning o'z kamchiliklari bevosita yetuk san'at asarlarida ham izini qoldiradi. Shuning uchun Belinskiy ta'kidlaganidek, qo'shimcha qilish, tushirib qoldirish, matnni o'zgartirish kabi huquq tarjimonda yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas. Biz shu nuqtai nazardan qaraganda, Usmon Nosirning tarjima uslubi, uning o'zicha ijodiy yondashishlari noto'g'ridek tuyuladi. Misol tariqasida keltirilgan manzarani kuzatsangiz, o'zbekcha nusxasida ko'pgina epitet va detallarni tarjimonning o'zi ijod qilib, «o'zboshimchalik» qilganini ko'rasiz! Xo'sh, bunday «o'zboshimchalik»ni himoya qilib bo'ladimi?! Bunday ijodiy yondoshishni himoya qilish kerak, albatta. Originaldagi «Звонко бегущие ручьи, По дну из камней разнотцветных» satrlari «Kumush kabi buloqlar jo'shqin, Jimirlaydi tubida toshi... Shalolalar sachratgan uchqun, Balki gurji qizining yoshi» kabi o'zbekchallashtirilgan. Oxirgi misralar asl nusxada yo'q. Lekin matn tagida shunday mantiqning yotishi parchaning oxirgi bandlaridagi «Poyut krasavits bezotvetng'g'x, Na sladki golos ix lyubvi» misralari bilan bog'liq. Bulbul

²⁰ Белинский В. Г. Полн. собр. соч., т. III. М., 1953, с. 429.

go'zal qizning javobsiz muhabbatini shirin ohanglarda kuylar ekan, shalolalar o'sha qizning ko'zlaridan sachragan uchqun bo'lsa ne ajab. Bu manzaralardagi tarjimonning erkinligi me'yoridan chiqib ketgan erkinlik emas, yoki shoirning xatosini tuzatish ham emas, tarjima matnining ichki mantiqini yuzaga chiqargan, xolos. Bu o'rinda yana shuni aytish kerakki, poetik asarning ichki mantiqi ochilib tagmatnda hech nima bo'lmasa, bu ham qoidaga to'g'ri kelmaydi, ya'ni badiiy asar sanalmaydi. Agar biz bunday xulosa qilsak, o'z-o'zidan shunday savol tug'iladi. Usmon Nosir tagmatn mantiqini yuzaga chiqarsa originaldagi sehirlik qayoqqa ketadi? Demak, asl nusxa mantiqi tarjimada jo'nashgan degan xulosa chiqishi shubhasizdir. Usmon Nosir tarjimasi aslo bunday ko'rinishdan xoli. Tarjimon yaratgan tasvirlar joyisiz narsa emas. U she'riyatning sehirli qudrati bilan, har bir detalg', epitet va tashbehlarga jon ato qila olgan. Bularning hammasi asl nusxaga zid kelmagan holda ichki va tashqi mantiqiga ega.

Biz manzaradagi Lermontov qo'llagan «Поют красавица безответных на сладки голос их любви» satrlarini umum asar ruhi nazaridan kuzatsak syujet oqimini harakatga keltiruvchi bir badiiy vosita ekanligini anglashimiz qiyin bo'lmaydi. Axir bulbul nega u, javobsiz qolgan bir go'zalning qo'shig'ini kuylaydi? Shoir, birinchidan bu detalg' orqali ajoyib bir tasvir yaratsa, ikkinchidan oldindagi bo'lajak fojeadan darak berayapti. Usmon Nosir shoirdagi bu xil badiiy priyomlarni juda nozik idrok qila olgan.

Lermontov tabiat manzaralari orqali Demon xarakterini ochishga muvaffaq bo'libgina qolmay, asar rivojiga zamin ham tayyorlaydi. Poemaning keyingi bo'limlarida keksa Gudalning saroyi va go'zal qizi Tamara haqidagi hikoyasiga o'tganda asardagi uyg'unlikka putur yetmaydi. Muallifning badiiy niyatiga tabiiy holda xizmat etadi.

Tarjimada ham Lermontovning bu xil usullarini Usmon Nosir nazardan soqit qilmaydi. Biz keltirgan manzarada «Shalolalar sachratgan uchqun, Balki gurji qizining yoshi» misralari bor. Biz bu misralarni originalda yo'q degandik. Lekin tarjimon asarning mantiqiy yo'nalishidan kelib, shu manzaraga jonlilik baxsh etgandir. Endi bu tashbeh faqat shu manzaragagina xizmat qilmasdan xuddi

Lermontov uslubiga xos asar syujetini harakatga keltiruvchi «vintcha»lardan biriga aylanadi. Bunday qo'shishlar V. G. Belinskiy ta'kidlab o'tgan «qo'shish» yoki asarning kamchiligini «tuzatish» emas, balki tarjima asarining ham mustaqil bir ijodiy jarayon ekanligining belgilaridir.

Lermontov shu tariqa Demon xarakterini ochish jarayonini ma'lum bir booqichga keltirgach, voqealar tasvirini Gudal saroyiga ko'chiradi. Bunda go'zal Tamara yashaydi. Tamaraning chekkan iztiroblarida, to'y kechasi uning o'yinga tushib qilgan xatti-harakatlarida yuqorida biz keltirgan manzaralarda ma'lum bir ishoralar borligini sinchkov kitobxon sezadi. Tamara har , jihatdan yetuk qiz. Shoir uni ehtirom bilan ta'kidlaydi.

Asardagi raqs epizodining o'zi Tamaraning barkamol qiz ekanligini ko'rsatadi. Ana shunday g'o'zalni tog'lar tepasidan dahshat solib uchib o'tayotgan Demon sezib qoladi. U qizga ko'ngil bog'laydi. Demon xarakteridagi ezgulikning nishonasi Tamaraga bo'lgan munosabatida ko'rinadi. Iblisning qalbida muhabbat hissi uyg'ongandan keyingi holati:

O'zbekcha:

Qayta yashash alomatimi?

Vasvasaga solgani qizni

Topolmadi aqlida mador

Unutmoqmi? Yo'q, parvardigor

Bunday kuchni, bundayin hisni

Unga asli berganmas edi.

Berganda ham u olmas edi.

Русча:

То был ли признак возрождения?

Он слов коварных искушения

Найти в уме своем не мог...

Забывать?—Забвенья не дал бог:—

Да он и не взял бы забвенья!...

Demonda qizga bo'lgan muhabbati tufayli ezgulik uyg'onadi. Demak, Demon

mana shunday xususiyatlari bilan dunyoviy muhabbatga ega bo'lgan chinakam inson sifatida gavdalanadi. «...Nihoyat darajada qiziqqonligi va g'oyat mustahkam irodali bo'lgan, dunyodagi adolatsiz ijtimoiy tuzumni inkor qilish g'oyasini va ozodlik g'oyasini o'zida mujassamlashtirgan, hamma narsani bilishga juda katta ishtiyoqi bo'lgan Demon obrazi 1840 yillardagi kishilar tomonidan ozod, mag'rur, ishonmovchi, fikr yurituvchi, bo'ysunmovchi bir shaxs sifatida qabul qilindi. Uning monologlari to'la ma'nodagi ozodlik uchun kurashga, kishi huquqlari uchun, ijod uchun, urf-odatlar bilan cheklanmagan, haqiqiy insoniy muhabbat uchun kurashga chaqiriq sifatida talqin qilingani»²¹ bejiz emas. Demonda chinakam insoniy his-tuyg'ular aks etadi. Muhabbat tufayli Demon qalbidagi o'zgarishlar tarjimada juda nozik ta'b bilan berilgan:

Tamarani monastirga beradilar. Lekin Demon bu yerda ham uni tinch qo'ymaydi. Muhabbatdan vujudiga o't tushgan Demonning qurib qolgan diydasi yumshaydi, ko'zlaridan yosh oqadi. Bu yosh tomchilari tushgan monastirg' xujrasi qoshidagi toshni kuydirib qoraytirib yuboradi.

O'sha joyda haliga qadar
Odam yoshi emas o'sha yosh,
O'sha o'tdek yosh kuydirgan tosh
Yakka, qora, kuygan tosh yotar...

Usmon Nosir bu oxirgi bandlarni aynan tarjima qiladi.

Ma'lumki, 30-yillar dinga, mahalliy ruhoniylarga, boylarga qarshi kurashning eng qizg'in pallasi edi. Hayotning o'zi taqozo etib turgan masalalarni Usmon Nosir Demonning monologlarida ko'radi. Shuning uchun ham bu monologlar originaldagidek jaranglaydi. Ularning dialogini ko'raylik:

Т а м а р а:

Нас могут слышать...

Д е м о н:

Мн одни.

Т а м а р а:

²¹ Лермонтов М. Ю. Танланган асарлар. 2 томлик. 1том. Сўзбоши. Тошкент, 1955, 17бет.

А бог!

Д е м о н:

На нас не кинет взгляда:

Он занят небом, не землей!

Tamara bilan Iblisdagi xarakterli xususiyat kitobxonga mana shu dialogda yana ham aniqroq ko'rinadi. Shu qisqa suhbatning o'zida Demondagi keskin ruhiy holat ham, qizdagi yumshoqlik ham ko'zga ravshan tashlanadi. Bir qarashda sodda bo'lib ko'ringan dialoglar asarda boshqaruv rolini o'ynaydi. Poemadagi dialoglar ham xuddi shunday. Demon monologlarining bosh leytmotivi shu oddiy dialogdan boshlanadi. Tamaraning «Xudoyimchi» deya hadik-hayajon bilan aytgan so'zlarini siz o'qiganday emas, eshitganday bo'lasiz. Bu yumshoqlik bilan, juda latif va iltijoli aytilgan birgina so'z qizning butun holatini ochib beradi. Usmon Nosir Tamaraning ruhiy holatini berishda bu so'zni juda topib qo'llagan. Iblis unga javoban: «Bizni ko'rmas u, ko'k bilan band, yerni so'rmas u»—deydi. Tamaraning «Xudoyimchi» so'zi bilan Demonning unga javobini qiyos qilgan o'quvchi xudoga bo'lgan qizning ishonchi naqadar kuchli bo'lsa, Iblisning tangriga nafrati shu qadar zo'r ekanligini his etadi. Badiiy, umuman poetik asarlarda oddiy bir so'zning roli juda katta bo'ladi. Mohir so'z ustasi bu so'zni o'z egasi tilidan gapirtiradi. Chunki bu so'z har bir tilda har xil ma'no kasb etadi. Usmon Nosir Tamara xarakterini originalga xos ochar ekan, unga bu qizning hayoti begona emas edi. Hatto so'zlash uslubi ham. Chunki o'zbek xotin-qizlaridagi dinga, xudoga ishonuvchanlik o'sha paytlarda kuchli edi. Garchi xotin-qizlarimiz monastirlarga qamalib, jandalar kiymasa ham (bizda bu odat bo'lmagan) lekin ularni paranji ostida to'rt devor ichida saqlanishi bu monastirda yotgandan ham og'irroq edi. Tamara xarakterining tarjimada mukammal, asl nusxaga hamohang chiqishida sharq xalqlari hayotining bir-biriga juda yaqinligi tarjimonga qo'l kelgan. Biz bu fikrni ko'proq takrorladik, qayta-qayta qayd qildik. Bu bilan biz Usmon Nosirning ajoyib talant sohibi ekanligiga shak keltirish niyatimiz yo'q. Bunday bo'lishi ham mumkin emas. Tarjima asari ham xalqimizning ma'naviy xazinasini hisoblanib, Usmon Nosir ham bu hazinaga ikkita buyuk siymo — Pushkin va Lermontovning mumtoz asarlarini qo'shib xalqning

mulkiga aylantirdi. Bu ikkala asarni ham tarjimon ayni kerak paytda, davr talablariga hamohang ravishda o'zbekchallashtirdi. Ijodkorning o'tkirligi ham, ulug'ligi ham davr bilan bo'lgan munosabatida, qilgan xizmatida ko'rinadi.

Yo'q! Sen uchun ey, sevimli yor,
Tor doira ichra lolu zor
Kundosh dag'allikka qul bo'lib,
Qayg'u bilan hasratga to'lib,
Yuraksiz va sovuq insonlar,
Mug'ombir do'st, yovuz dushmanlar,
Samarasiz tilak, qo'rquvlar
Bo'sh va og'ir mehnat, qayg'ular
Orasida gulday so'lishni
Bekorlarga xarob bo'lishni
Taqdir azal yozmagan aslo,
Bunday lahad qazmagan aslo (366bet).

Usmon Nosir tarjimasiga xos xususiyat shundaki, u hamisha satrlardagi so'zlarga qarab emas, tagmatn ma'nosi asosida o'giradi. Tagmatnga asoslangan tarjima muallifdan mustaqil ijodni talab qiladi. Mustaqil ijod qilish uchun kamida tarjima qilayotgan muallif original asar muallifi bilan teng darajadagi ijodkor bo'lishi kerak. Aks holda tarjima ko'ngildagidek chiqmaydi. Usmon Nosirdagi iste'dod, ichki potentsial kuch Pushkin, Lermontov asarlarini tarjima qilishga yetarli darajada edi. Uning yaratgan asarlari, 30-yillarda mutarjim talantiga bo'lgan yuksak qarashlar fikrimizning dalilidir. Yuqoridagi she'riy satrlarni o'qir ekansiz, go'yo Usmon Nosir endigina paranjilarni o'tga uloqtirib, zavod, fabrikalarga erkaklar bilan yonma-yon ishga ketayotgan xotin-qizlarimizga qarata xitob qilganday tuyuladi: «Taqdir azal yozmagan aslo, bunday lahad qazmagan aslo». Aslida originalda bunday misralar yo'q. Dekin umum matnning ma'nosi bu satrlarni inkor qilmaydi. Demon monologlari Usmon Nosirda shu taxlid ishlanganki go'yo, Lermontov biz uchun — o'zbek xalqi uchun, o'zligini angelayotgan, yangi turmushga qadam qo'yayotgan xalq uchun yozgandek jaranglaydi.

Umumiy xulosalar

XX asrning 30-yillarga kelib adabiyotimizda bo'lganidek tarjimachilikda ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ilgarigidek «ijodiy» yondashishlar, «o'zidan qo'shishlar»ga chek qo'yildi. Asl nusxa qay tarzda yaratilgan va qaysi xalqqa mansub bo'lsa buning hammasini o'z holicha saqlash tamoyiliga amal qilina bordi.

XX asr 30-yillari tarjimachiligining yana bir muhim jihati shundaki, bu yillarda realistik tarjimaga asos solindi, tarjima ilmiy va nazariy asoslari yaratila boshlandi. Tarjimaning sifati uchun kurash asosiy masalaga aylandi. Tarjima asarlari xususida matbuot sahifalarida qizg'in bahs-munozaralar bo'lib turdi. Ham adabiyotshunos, ham tarjimashunos olimlar yetishib chiqa boshladi. Bu jihatdan Otajon Hoshim, Sotti Husayn, Mannon Royiq, Ziyo Said, Sanjar Siddiqlarini eslash joizdir²². 30-yillar tarjimachiligining keng ko'lamda qanot yozishini hayotning o'zi taqozo qilardi

Bu davr o'zbek tarjimachiligida ilk bosqich edi. Bu yillardagi tarjimalarning qimmatini ijodkorlarimizning ilk, dadil tashlagan qadamlarining zarbi bilan belgilanadi. Bu zarb adabiyotimizda tarjima orqali ayniqsa she'riyatda shakliy rangbaranglikni, mavzuyi jihatdan kenglikni vujudga keltirdi. Shoir va yozuvchilarimiz bunday ulug' san'atkorlar asarlarini tarjima qilish bilan, avvalo ijodkor sifatida o'zligini, ijod mas'uliyatini angladilar. Shu jihatdan ham she'riyatimizda, adabiyotimizda sifat o'zgarishi ro'y bera boshladi. Tarjima sifati yildan yilga yaxshilana bordi. Bu davr adabiyoti intensiv ravishda tarjima asarlari bilan boyib borsa, hayotning ko'tarinki pafosini ifodalaydigan adib va shoirlarimizning o'zlari yaratgan asarlari bilan boyidi.

1930 yilda A. S. Pushkinning «Dubrovskiy» povesti Ismoil Obid tarjimasida bosilib chiqdi. 1931 yil dan boshlab M. Gorg'kiyning asarlari birin-ketin tarjima etilib nashr qilina boshladi: «9 yanvar», «Chaqmoqli ish» («Дело с застёжками»—tarjimoni noma'lum), «Men yozishni qanday o'rgandim» (G'. Abdulla tarjimasida), «Lochin qushi qo'shig'i» (Nasrullo tarjimasida) asarlari ana shular

²² Саломов Ф. Адабий аънава ва бадиий таржима. Тошкент, 1980.

jumlasidandir.

1931 yildan boshlab tarjimachilik ishiga yangi kuchlar kelib qo'shildi.

H. Olimjon M. Lermontovning «Bela», Izzat Sultonov Lukashinning «Kichik hikoyalar»ini, Malik Rahmon Chexovning «Unter Prishibeev» asarlarini tarjima qildilar. Mannon Royiq badiiy tarjima ustida juda unumli ish olib bordi. U M. Gorg'kiyning «Bolalik» (1931), Lyashkovning «Yemirilish» (1931), Sholoxovning «Ochilgan qo'riq» (1932) asarlarini tarjima qilgan.

Abdulla Qahhor Serafimovichning «Temir oqim», M. Gorg'kiyning «Mening universitetlarim» asarlarini tarjima qilishi tarjimonlikdagi katta jasorat edi. Mirzakalon Ismoiliiy xuddi shu yillarda L. N. Tolstoyning «Tirilish», Novikov Priboyning «Pulima», M. Gorg'kiyning «Konovalov» asarlarini ehtiros bilan tarjima qildi.

30-yillarda til masalasi xususida qizg'in bahs va munozaralar bo'ldi. Ko'pchilik adib va olimlar fors va arab tillardan kirib kelgan so'zlarni ishlatishga qarshi chiqdilar. Bir xil tarjimonlar tarjima qilinishi mumkin bo'lgan ba'zi ruscha so'zlarni aynan olishga urindilar. 30—40yillar tarjimachiligi xususida gap ketganda Usmon Nosirning tarjimachilik faoliyati to'g'risida fikr yuritmay bo'lmaydi. Bu iste'dodli tarjimonning A. S. Pushkindan «Boqcharoy fontani», M. Yu. Lermontovdan «Demon» tarjimalari tarjimachiligimizning yuksak namunasi sifatida hozirgi kunda ham ko'pchilik yosh tarjimonlarga ibratdir.

M. Yu. Lermontovning «Boqcharoy fontani»dan keltirilgan misralarda Usmon Nosirning o'ziga xos tarjimonlik tamoyili namoyon bo'lgan. Birinchidan, tarjimon barmoqdagi to'qqiz bo'g'inli vaznni tanlab to'g'ri ish qilgan. Ikkinchidan, u konmatn hajmiga emas mantig'iga e'tibor beradi. Agar biz bugungi yuksakliklardan turib 30-yillar adabiy jarayonidagi realizm metodi asosida yangi adabiyot yaratish uchun ketgan qizg'in kurashni kuzatadigan bo'lsak, davrning o'zi kashf etgan buyuk iste'dodlar yorqin namoyon bo'ladi. 30-yillar tarjimachiligida ham Yevropa adabiyotini, rus adabiyotini bu kun uchun ham ibratli bo'larli tarzda tarjima etgan san'atkorlar xuddi Ernst Xeminguey ta'kidlaganidek, o'zlarining benazir iste'dodi bilan adabiyotimiz tarixida munosib o'rin egallaydilar.

Usmon Nosirdagi bunday noyob talant ayniqsa Lermontovning «Demon» poemasi tarjimasida ko'zga tashlanadi. Bu asar tarjimasida ham tarjimon «Boqcharoy fontani»dagi tamoyilida ish ko'radi. Usmon Nosir tarjima etish uchun tanlagan bu asarlar sharq xalqlariga xos milliy kolorit asosida yaralgan. Ana shunday adib va tarjimonlar qatorida o'zining qisqa, lekin sarmazmun umrida bor-yo'g'i ikki tomlik asarlar, ikkita poema va bitta ilmiy maqola tarjimasini meros qoldirgan Usmon Nosir ham sharaflil o'rin tutadi. Ma'lumki, san'atkor ijodini hech qachon hajm belgilagan emas. Usmon Nosir shu «ozgina» ijodi bilan adabiyotimiz tarixida nurli iz qoldirgan omadli shoirlarimizdandir. Usmon Nosirning tarjima qilish uchun Pushkin va Lermontovdan tanlagan asarlari uning talant yo'nalishiga yaqin bo'lgan poemalardir. Biz «Demon»ning o'zbekcha nusxasini o'qir ekanmiz, tarjimonning nazariy bilimining ham yetukligini his etamiz. U asar tarjimasiga kirishar ekan, avvalo matnning ma'nosini uqib oladi. Shoirning badiiy niyatini, asarning pafosini, ritmikasini doimo nazarda tutadi. Usmon Nosir asardagi berilgan tabiat manzaralarini ham latif misralarda asl nusxaga hamohang ifodalaydi. Original bilan bahs qila oladigan tasvirlar chizadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

IJTIMOIIY-SIYOSIIY ADABIYOTLAR:

1.1. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд.
–Тошкент: Ўзбекистон, 1996.

1.2. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2000.

1.3. Каримов И.А. Юксак ма'навиюат – енгилмас куч. - Тошкент: Ма'навиюат, 2008.

1.4. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни уанада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиюатини ривожантириш концепсиюаси.
–Тошкент: Ўзбекистон, 2010.

1.5. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади, «Халқ сўзи», 2011 йил, 22-уанвар.

1.6. Каримов И.А. «Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида».
– Тошкент: Ўзбекистон, 2011.

1.7. Каримов И.А. «Аждодларимизнинг бебаҳо мероси – абадиюатга дахлдор ма'навий хазинадир», Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизациюа ривожидаги роли ва аҳамиюати. Халқаро конференциюадаги ма'рузаси.
–Самарқанд: 2014, 16-май.

2. II. Ilmiy adabiyotlar

1. Ҳатамов Н. Саримсоқов Б Адабиётшунослик терминларининг русча ўзбекча изоҳли луғати.Т. Ўқитувчи 1983.

2. .Бобоев Т. Шеър илми таълими Т.1996

3.Бобоев Т.Адабиётшунослик асослари. –Т.2002

4.Қуръонов D ва бошқалар.Адабиётшунослик луғати.–Т: академ нашр 2010.

5. Адизова И. Ўзбек адабиёти тарихи, Тошкент. “Фан” 200914

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.
7. Куронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013.
8. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: EXTEMUM – PRESS, 2010.
9. Қодиров П. Тил ва эл. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-манба уйи, 2005.
10. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006.
- Саломов Ғ. Адабий анъана ва бадиий таржима. Тошкент, 1980.
11. М. Расули й. Маяковский асарлари ўзбек тилида. Тошкент ГНТС, 84бет
12. Ҳамид Фулом. Йиллар. Йўллар. Устозлар. Тошкент, 1979, 68бет.
13. Пушкин А. С. Полное собрание сочинений. Т. 4. 1954, с. 72.
14. Ҳошимов О. «Эвгений Онегин» таржимаси тўғрисида.— А. С. Пушкин.
15. Евгений Онегин. Ойбек таржимаси. Тошкент, Уздав иашр, 1937, 22бет.
16. Пушкин А. С. Полное собрание сочинение в десяти томах, Том.третий. Л., 1977, с. 154.
17. Олимжон Ҳ. Беш томлик асарлар мажмуаси. Биринчи», том. Тошкент, 1970, 219бет.
18. Белинский В. Г. Избранные статьи. М., 1974, с. 93.
19. Пушкин А. С. Полное собрание сочинений в десяти то мах. Том ИВ. Л., 1977, с. 83.
20. Пушкин А. С. Танланган асарлар. 2том. Тошкент, 1954, 102бет.
- Саломов Ғ. Тил ва таржима. Тошкент, 1966, 69бет.
21. М. Ю. Лермонтов. Полное собрание сочинений в десяти то мах, том четвертый. Л., 1977, с.
22. М. Ю. Лермонтов. Танланган асарлар. Икки жилдлик. Биринчи том. Тошкент, 1979, 244бет.
23. Хемингуэй Э. Избранные произведения. В 2х томах. Т ИИ. М., 1959, с. 186.
24. Фафуров И. Усмон Носир. Тошкент, 1967; Умарбекова З. Лермонтов и ўзбекская литература. Ташкент, 1973.

25. Белинский.В. Г. Сочинение Александра Пушкина. М.— Л., 1949.
- 26.Султон И. Адабиёт назарияси. –Тошкент: Фан. 2005.
- 27.Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. –Т.: Янги аср авлоди. 2006.
- 28.Мирвалиев С. Ўзбек адиблари. –Т.: Фан. 1993. 147-148 Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. –Т.: Фан. 2006.
- 29.Шермухаммедов П. –Т.: Эзгулик ҳиссини тарбиялаб... Манба: Барчадан яхшироқ ҳаёт гули...-Т.: Ғ.Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашрети. 1983.149-150.

II. INTERNET MA'LUMOTLARI:

- 4.1. <http://www.gpntb.ru/>
- 4.2. <http://www.natlib.uz/>
- 4.3. <http://library.samdu.uz/>
- 4.4. <http://www.faa.uz/>
- 4.5. www.ziyonet.uz
- 4.6. <http://www.literature.uz/Alisher Navoiy>

NamDU filologiya fakulteti o'zbek tili
yo'nalishi 4-kurs 401-guruh talabasi
Jaloldinova Muxayyo Xasanboy qizinig
“Usmon Nosir – mohir tarjimon” mavzusida
yozgan bitiruv-malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Ma'lumki, har bir yangilikning hayotda qaror topishi, o'z o'rniga, o'z qiyofasiga ega bo'lishi osonlikcha ro'yobga chiqmaydi. Xuddi shu ma'noda ming yillardan beri shakllanib kelgan eng yaxshi an'analarni o'z ichiga qamrab olgan yangi tipdagi adabiyot osonlikcha shakllanmagan. Adabiyot haqida, shu jumladan tarjima adabiyoti xususida fikr yuritilar ekan, adabiy jarayonni hayot taqozosi, turmush shart-sharoitlari, qisqasi, davr atmosferasini hisobga olmasdan bu masalaga yondashish mumkin emas.

Shu nuqtai nazardan Jaloldinova Muxayyo Xasanboy qizinig “Usmon Nosir – mohir tarjimon” mavzuidagi bitiruv-malakaviy ishi dolzarblik kasb etadi.

Talaba ishda Usmon Nosirdek shaxsi va ijodi mashhur zot ijodini nazariy va amaliy jihatdan yoritishni o'z oldiga maqsad va vazifa qilib qo'ygan:

Tarjima adabiyoti Vatan adabiyotining bir qismi, ya'ni Vatan adabiyotiga aylangan ajralmas xazinadir. 30-yillar tarjimachiligiga nazar tashlar ekanmiz, tarjima asarlari o'sha davr adabiy jarayonini harakatga keltirgan asosiy kuchga aylanganligini ko'ramiz.

Bitiruv – malakaviy ish puxta va izchil tuzilgan reja asosida yozilgan bo'lib, an'anaviy talablardan kelib chiqqan holda mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, manbalari, Bitiruv-malakaviy ishning maqsad hamda vazifalari, nazariy va amaliy ahamiyati, tuzilishi oddiy tarzda ifodalangan.

BMI hajman 74bet bo'lib, ikki bob (har bob ikki fasldan iborat), xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Talaba Jaloldinova Muxayyo Xasanboy qizi shoir hayoti va ijodini hamda

badiiy mahoratini yaxshi o'rganishga harakat qilgan. Usmon Nosir hayoti va ijodiga oid materiallarni, to'plagan va ikki bob misolida guruhlashtirib tadqiq qila bilgan. Boblar va ularning bo'limlarida Usmon Nosir hayoti va ijodi, uning lirikasi, uning mavzu ko'lami va hamda uslubining o'ziga xosligi ilmiy asosda atroflicha chuqur tahlil qilingan. Buning natijasida BMI ancha puxta chiqqan. Talabanning fikr-mulohazalari, shaxsiy umumlashmalari ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lgan.

Bitiruv-malakaviy ish tugallangan, DAK talablariga javob beradi. Uni himoyaga tavsiya qilaman. Mazkur ishni ijobiy baholashga loyiq deb bilaman.

Taqrizchi:

f.f.n.dots. O.Karimov.

NamDU filologiya fakulteti o'zbek tili
yo'nalishi 4-kurs 401-guruh talabasi
Jaloldinova Muxayyo Xasanboy qizinig
“Usmon Nosir – mohir tarjimon” mavzusida
yozgan bitiruv-malakaviy ishiga

T A Q R I Z

30-yillar tarjimachiligi xususida gap ketganda shuni aytish mumkinki, tarjimachilikda tarjima sifati uchun kurash qizg'in tus oldi. Tarjimachilik sifati uchun kurashning bu xildagi qizg'in kurash jarayoniga aylanishining muhim bir sabablari bor. Talaba Usmon Nosir poetik mahorati haqida so'zlar ekan, birinchi navbatda lirik qahramonning xarakter xususiyatlarini, o'z fikr-mulohazalarini qay darajada ocha olganligi nazarda tutadi. Badiiy g'oya san'atkorning ichki olami, uning mahoratini ochib berishda asosiy rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan Jaloldinova Muxayyo Xasanboy qizinig “Usmon Nosir – mohir tarjimon” mavzuidagi bitiruv-malakaviy ishi dolzarblik kasb etadi.

30—40yillar tarjimachiligi xususida gap ketganda Usmon Nosirning tarjimachilik faoliyati to'g'risida fikr yuritmay bo'lmaydi. Bu iste'dodli tarjimonning A. S. Pushkindan «Boqchasaroy fontani», M. Yu. Lermontovdan «Demon» tarjimalari tarjimachiligimizning yuksak namunasi sifatida hozirgi kunda ham ko'pchilik yosh tarjimonlarga ibratdir.

Jaloldinova Muxayyo Xasanboy qizinig ana shu masalalarni nazariy va amaliy jihatdan yoritishni o'z oldiga maqsad va vazifa qilib qo'ygan, hamda mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli uddalagan. Usmon Nosir hayoti va ijodini o'rganishga oid tadqiqot, kitob va maqolalarni o'rgangan.

Usmon Nosirning ijodi azim bir kenglikka chiqish arafasida to'xtab qoldi. Uning ijodida yoshlikning betakror qaynoq tuyg'ulari, hayotga muhabbat, ehtirosli kurash hissi barq urib turadi. Undagi bu tuyg'u, bu qaynoqlik, ehtirosli kurash hissi uni Pushkin va Lermontov ijodiga yaqinlashtirdi. Tarjimon ularda o'z ijodiga hamohanglik sezdi. Shu hamohanglik natijasi o'laroq Pushkin, Lermontov asarlari

Usmon Nosir qalamida xuddi o'zbek tilida yozilgandek jarangladi.

Talaba Usmon Nosirning tarjimonlik mahoratini ochib berishga xarakat qilgan.

Bitiruv – malakaviy ish puxta va izchil tuzilgan reja asosida yozilgan bo'lib, an'anaviy talablardan kelib chiqqan holda mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, manbalari, bitiruv-malakaviy ishning maqsad hamda vazifalari, nazariy va amaliy ahamiyati, tuzilishi oddiy tarzda ifodalangan.

BMI hajmi talab darajasida bo'lib, ikki bob (har bob ikki fasldan iborat), xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Talaba Jaloldinova Muxayyo Xasanboy qizi ijodkor shoir hayoti va ijodini hamda badiiy mahoratini yaxshi o'rganishga harakat qilgan. Usmon Nosir hayoti va ijodiga oid materiallarni, to'plagan va ikki bob misolida guruhlashtirib tadqiq qila bilgan. Boblar va ularning bo'limlarida Usmon Nosir hayoti va ijodi, uning lirikasi, uning mavzu ko'lami va hamda uslubining o'ziga xosligi ilmiy asosda atroflicha chuqur tahlil qilingan. Buning natijasida BMI ancha puxta chiqqan. Talabanning fikr-mulohazalari, shaxsiy umumlashmalari ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lgan.

Bitiruv-malakaviy ish tugallangan, DAK talablariga javob beradi. Uni himoyaga tavsiya qilaman. Mazkur ishni ijobiy baholashga loyiq deb bilaman.

Taqrizchi:

NamDU qoshidagi AL o'qituvchisi.

NamDU filologiya fakulteti o'zbek tili
yo'nalishi 4-kurs 401-guruh talabasi
Jaloldinova Muxayyo Xasanboy qizinig
“Usmon Nosir – mohir tarjimon”
mavzusida yozgan bitiruv-malakaviy
ishiga ilmiy rahbar

X U L O S A S I

30—40yillar tarjimachiligi xususida gap ketganda Usmon Nosirning tarjimachilik faoliyati to'g'risida fikr yuritmay bo'lmaydi. Bu iste'dodli tarjimonning A. S. Pushkindan «Boqchasaroy fontani», M. Yu. Lermontovdan «Demon» tarjimalari tarjimachiligimizning yuksak namunasi sifatida hozirgi kunda ham ko'pchilik yosh tarjimonlarga ibratdir.

Usmon Nosirning ijodi azim bir kenglikka chiqish arafasida to'xtab qoldi. Uning ijodida yoshlikning betakror qaynoq tuyg'ulari, hayotga muhabbat, ehtirosli kurash hissi barq urib turadi. Undagi bu tuyg'u, bu qaynoqlik, ehtirosli kurash hissi uni Pushkin va Lermontov ijodiga yaqinlashtirdi. Tarjimon ularda o'z ijodiga hamohanglik sezdi. Shu hamohanglik natijasi o'laroq Pushkin, Lermontov asarlari Usmon Nosir qalamida xuddi o'zbek tilida yozilgandek jarangladi.

Jaloldinova Muxayyo Xasanboy qizinig “Usmon Nosir – mohir tarjimon” mavzusidagi malakaviy ishida shu masalalar izchil, keng ko'lamda, reja asosida ham nazariy, ham amaliy jihatdan yoritilgan. Bitiruv-malakaviy ish har tomonlama puxta tuzilgan reja asosida yozilgan bo'lib, ishning kirish qismida an'anaviy talablardan kelib chiqilgan holda mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, manbalari, Bitiruv-malakaviy ishning maqsad hamda vazifalari, nazariy va amaliy ahamiyati, tuzilishi sodda, tushunarli usulda ifodalangan.

Usmon Nosirdagi bunday noyob talant ayniqsa Lermontovning «Demon» poemasi tarjimasida ko'zga tashlanadi. Bu asar tarjimasida ham tarjimon «Boqchasaroy fontani»dagi tamoyilida ish ko'radi. Usmon Nosir tarjima etish uchun tanlagan bu asarlar sharq xalqlariga xos milliy kolorit asosida yaralgan. Ana shunday adib va tarjimonlar qatorida o'zining qisqa, lekin sermazmun umrida bor-yo'g'i ikki tomlik asarlar, ikkita poema va bitta ilmiy maqola tarjimasini meros

qoldirgan Usmon Nosir ham sharaflı o'rin tutadi. Ma'lumki, san'atkor ijodini hech qachon hajm belgilagan emas. Usmon Nosir shu «ozgina» ijodi bilan adabiyotimiz tarixida nurli iz qoldirgan omadli shoirlarimizdandir.

Mazkur kichik tadqiqotda talaba o'z oldiga Usmon Nosir badiiy mahoratiga oid tadqiqotlarni o'rganish kabi vazifalarni amalga oshirishni rejalashtirgan.

Ta'kidlash joizki, talaba bu vazifalarni bajarishga erishgan. Ishda Usmon Nosir asarlaridagi insonparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalarining ifodalanishi misollar vositasida atroflicha tahlil qilingan. Mazkur tadqiqot materiallaridan oily o'quv yurtlarida, akademik litsey va umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot fanlarida Usmon Nosir ijodiy mahoratini o'rgatishda foydalanish mumkin.

Bitiruv – malakaviy ishda ma'lumotlarni ishonarli dalillar bilan ifodalash talab darajasida amalga oshirilgan. Ular hozirgi kun talablariga javob beradi. Talabaning fikrlari va chiqargan xulosalari asosli.

Bitiruv – malakaviy ish o'z yakunini topgan. Ishning rasmiylashtirilishi DAK talablariga javob beradi. Ishni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar :

katta o'qit. A.Omonov